

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo'nalishi

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
dekani

_____ prof. B.S.Abdullayeva
«___» _____ 2014-y.

Mavzu: “O'zbek tilida ko'plik ma'nolarining ifodalanishi haqida (boshlang'ich
sinf “O'qish kitobi”dagi matnlar asosida)”.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

IV bosqich 401-guruh
talabasi Xurramova Nilufar

Ilmiy rahbar: M.A.Hamrayev
Taqrizchi: _____

«Himoyaga tavsiya etilsin»
“Boshlang'ich ta'lim metodikasi”
kafedrasi mudiri, dots. Sadikova A.V.

«___» _____ 2014-yil

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

BO‘LIMLAR VABO‘LIMCHALAR	beti
Ishning umumiy tavsifi.....	3
KIRISH. O‘ZBEK TILIDA KO‘PLIK MA’NOLARINING IFODALANISHI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT.	8
1-BOB. OT TURKUMIDA KO‘PLIK MA’NOLARINING IFODALANISHI.....	23
1.1.Otlarda ko‘plik ma’nolarining morfologik usulda ifodalanishi...	23
1.2.Otlarda ko‘plik ma’nolarining leksik usulda ifodalanishi.....	29
1.3. Otlarda ko‘plik ma’nolarining leksik-morfologik usulda ifodalanishi.	35
1.4.Otlarda ko‘plik ma’nolarining semantik usulda ifodalanishi	36
1.5.–lar qo‘shimchasining ma’nolari.....	3
2-BOB. FE’L TURKUMIDA KO‘PLIK MA’NOLARINING IFODALANISHI.....	41
2.1.Fellarda ko‘plikning morfologik usulda ifodalanishi.....	41
2.2. Fellarda ko‘plikning ma’nolarining –lar affiksi yordamida ifodalanishi.....	44
2.2.1 Sof fe’llarda ko‘plikning ifodalanishi.....	44
2.2.2 Fe’lning vazifadosh shakllarida ko‘plikning ifodalanishi.....	46
2.2.3 Fe’lning mayl shakllarida ko‘plikning ifodalanishi.....	46
2.2.4 Fe’llardagi -lar affiksining boshqa ma’nolarni ifodalashi.....	47
2.3. Fellarda ko‘plikning nisbat affikslari yordamida ifodalanishi...	48
3-BOB. BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA KO‘PLIK MA’NOLARINING IFODALANISHI.....	52
3.1. Olmosh va ravishlarda ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi.	52
3.2.Ravishlarda ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi.	56
3.3.Boshqa turkumlarda ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi.....	58
UMUMIY XULOSALAR.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT I.....	61
TAYANCH TUSHUNCHALAR	62

Ishning umumiy tavsifi

Ona tilini bilish, undan to'g'ri va maqsadli foydalanish har bir ziyoli kishining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois ham ona tili fanini o'rganish, uning imkoniyatlaridan to'la foydalanish barcha davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa, u kishilarning orzu-istaklari, fikri, o'y-xayollarini bayon qilish vositasi hisoblanadi.

Ayniqsa, har bir o'quvchi uchun til u qaysi ta'lim bosqichida tahsil olishidan qat'i nazar uning hayotiy faoliyatining eng muhim vositasi bo'lib qoladi. Olimlar tilni ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etishadi, chunki til kishilik jamiyatiining necha ming yillik tarixi mobaynida barchaga barobar xizmat qilib kelgan. Shuningdek, til barcha mavjud fanlarni o'zlashtirishning muhim kaliti hisoblanadi. Shu bois biz tilning yana bir muhim jihati, o'tmish-insoniyat, tabiat va jamiyat tarixi to'g'risidagi bilimlar avlodlarga bevosita til, aniqrog'i, uning yozma shakli yordamida yetkazib berilishini aslo unutmasligimiz lozim. Shu bois ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini asoslarini mukammal o'rgatish ham ta'limiy, ham ijtimoiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Demak, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan merosimizni o'rganish, uni kelajak avlodlarga mukammal tarzda yetkazib berishdagi asosiy vosita ham til sanaladi.

Ko'rinib turibdiki, ona tilini chuqur o'rganish har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim manba, asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz tanlagan malakaviy bitiruv ishimiz ham shu sohaga til fanining kichik bir bo'lagini tadqiq qilishga bag'ishlanadi.

Istiqlol yillarida ona tilimizni o'rganish imkoniyati yanada kengaydi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng, ta'lim tizimida tilimizni chuqur o'rgatishga e'tibor kuchaydi. Fikrimizning isboti sifatida Yurtboshimiz I.A.Karimovning "Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish

doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"¹, degan fikrlarini keltirishning o'zi kifoya.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida nafaqat ta'lim tizimida o'zbek tilining o'rnini xususida, balki shu tilni yosh avlodga yetkazib berishdek mas'uliyatli vazifani zimmasiga olgan tarbiyachilar, o'qituvchilar qanday bilimga ega bo'lishi xususida ham o'zining fikrlarini bildirib o'tganlar.

“Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini malakasini oshirish kabi paysalda solib bo'lmaydigan dolzarb masalalarga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tilimizni o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda o'qituvchi talabalarimizga zamonaviy bilimni berish deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak”³

Prezidentimizning mana shu fikrlaridan sezilib turibdiki, bizning zimmamizga o'ta mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Albatta, kelajak yosh avlodlarimizning qo'lida ekan, biz tarbiyachilar, o'qituvchilar o'z kasbimizni mukammal egallashimiz va har daqiqa ma'suliyatni his qilmog'imiz, o'z ustimizda ishlamog'imiz lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 2013- yilda mamlakatimiz konstitutsiyasining 21 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqlarida 2014-yilni “Sog'lom bola yili” deb atash bilan bir qatorda mamlakatimiz ta'lim tizimiga, ayniqsa boshlang'ich ta'limga katta e'tibor qaratilyotganligini alohida e'tirof etib: “Ijtimoiy rivojlanish birinchi navbatda ta'lim va sog'likni saqlash sohalarining moddiy-texnik darajasini mustahkamlash va

¹I.A.Karimov “Юксак маънавият енгилмас куч” Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2008 йил, 86 бет.

³I.A.Karimov “Баркамол авлод орзуси” “Ўзбекистон миллий энсклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Тошкент 2000 йил 13-бет

ularni jihozlash masalalari, shak-shuhbasiz, joriy yilda ham diqqatimiz markazida bo‘ladi”⁴, deb ta’kidladilar

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, shu yil ham ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

Biz esa bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda ona tilimizning murakkab qirralarini yanada chuqurroq o‘rganishimiz mumkin.

Bizning mazkur tadqiqotimiz esa shu yo‘lda ilk bosqichlardan biri hisoblanadi, desak xato bo‘lmas... Bunday tadqiqotlar orqali biz tilimiz imkoniyatlarini mukammal bilish va o‘z amaliy faoliyatimizda qo‘llash kerakligi to‘g‘risida yangi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Bizning bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi “O‘zbek tilida ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi” deb nomlanganligi bois asosiy e’tiborimizni hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud son kategoriyasiga, ya’ni ko‘plik ma’nolarining ifodalanishiga qaratdik.

1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar otlarning birlik va ko‘plik shaklda qo‘llanishini ham amaliy ham nazariy tarzda o‘rganadilar. Lekin darslikda berilgan mashqlar sonining nisbatan kamligi va mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqtning chegaralanganligi o‘quvchilarda mazkur mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarni mukammal tarzda o‘zlashtirish imkonini bermaydi. “Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi”dagi matnlar tarkibidagi ko‘plik ma’nosining turli yo‘l va vositalar bilan ifodalanishini tadqiq qilish ana shu muammoni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tanlangan mavzumizning dolzarbligi ana shunda aniq namoyon bo‘ladi.

2. Tadqiqot ishining maqsadi. Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi”dan to‘plangan materialga asoslangan holda matnlarda uchragan ko‘plikni ifodalashning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari, turlarini o‘rganish ishdan ko‘zlangan asosiy maqsad hisoblanadi .

⁴“Халқ сўзи” газетаси

3. Tadqiqot mavzusini yoritish davomida bajariladigan vazifalar.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlarda uchraydigan ko'plik ma'nolarining ifodalanishining grammatik xususiyatlari mavzusini yoritishdan ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida bajariladigan vazifalar:

- 1) Ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali o'zbek tilida ko'plik ma'nolarining ifodalanishi haqida umumiy ma'lumot berish;
- 2) Otlarda ko'plik ma'nosining ifodalanishini aniqlab chiqish;
- 3) Fe'llarda ko'plik ma'nosining ifodalanish yo'llarini aniqlab chiqish;
- 4) Olmosh, ravish va ko'makchilarda ko'plik ma'nosining ifodalanish yo'llarini aniqlab chiqish.

4. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqot ishida boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlarda uchragan ko'plik ma'nolarining ifodalanishi birinchi marta grammatik jihatdan tashkil qilingan bu so'z birikmalarining kichik yoshdagi maktab o'quvchilari saviyasiga mosligi birinchi marta tekshiriladi".

5. Tadqiqotning nazariy asosi. Dunyoni bilish nazariyasi, jumladan, ona tili bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar, tilshunos olimlarning ilmiy asarlari tashkil etadi.

6. Tadqiqot obyekti. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi matnlar.

7. Tadqiqot metodlari sifatida tavsifiy tahlil, qiyoslash metodlari olindi.

8. Tadqiqot materiali bo'lib boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dan mavzu bo'yicha olingan misollar xizmat qiladi.

9. Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tadqiqot yakunida chiqariladigan xulosalar boshlang'ich sinf "O'qish kitob"lariga matnlar tanlashda mezon sifatida xizmat qilishi mumkin.

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan mavjud bilim, ko'nikma va malakalari sifati oshiriladi.

3) boshlang'ich sinf o'quvchilariga darslikdagi matnlarni chuqurroq tushunishga va ularni kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga tushuntirishda yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishimizining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH. O‘ZBEK TILIDA KO‘PLIK MA’NOLARINING IFODALANISHI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Ona tili mavjud bo‘lgan va biz tahlil qilgan darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda mavzuga doir ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida ularda o‘zbek tilida ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi xususida turli fikrlarning ilmiy faktlar va aniq misollar orqali asoslab berilganligining guvohi bo‘ldik. Quyida ana shu tahlillarni ifodalashdan oldin umuman kategoriya va ko‘plik kategoriyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

A.Nurmonov, Sh.Shahobidinova, Sh.Iskandarova, D. Nabiyevalarning “O‘zbek tili nazariy grammatikasi”¹ da grammatik kategoriya to‘g‘risida quyidagi fikrlarni ko‘rish mumkin:

Grammatik ma’no bilan uning shakliy ifodasi birgalikda grammatik kategoriyaning tashkil qiladi. Grammatik kategoriyalar bevosita morfologiyaga xos bo‘lgan so‘z turkumlari, grammatik son, kelishik, zamon kabi hodisalarni shuningdek, sintagma, ega, kesim, to‘ldiruvchi kabi hodisalarni (sintaktik kategoriyalarni) o‘z ichiga oladi.

Shunga ko‘ra grammatik kategoriyaning 2 turi farqlanadi: 1) morfologik kategoriya; 2) sintaktik kategoriya.

O‘zaro bir-biriga zid qo‘yilgan va qiyosan olingan grammatik ma’nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari – grammatik shakllar tizimi morfologik kategoriya deyiladi.

Morfologik kategoriyalar so‘zning qaysi turkumga kirishi bilan bog‘liq. Har bir so‘z turkumining o‘z grammatik kategoriyasi bor. Masalan: otlarda kelishik kategoriyasi, son kategoriyasi, fe’llarda shaxs-son kategoriyasi, nisbat (daraja), zamon shakllari tizimlarining har qaysisi o‘ziga xos grammatik ma’nolar majmuasiga va shu ma’nolarning ifoda shakllari tizimiga ega.

¹A.Нурмонов, Ш.Шахобиддинова Ш.Искандарова, Д.Набиева. “Ўзбек тили назарий грамматикаси”Т.1978 й. 176-6.

Grammatik kategoriyalar umumiy hodisa sifatida xususiy hodisalarda mavjud bo‘ladi, xususiy hodisalar umumlashmasi asosida yuzaga keladi. Demak, son kategoriyasi birlik va ko‘plik ma’nolarini ifodalovchi shakllar tizimidan - egalik kategoriyasi birinchi shaxs – so‘zlovchi, ikkinchi shaxs – tinglovchi, uchinchi shaxs - o‘zga va shularning miqdoriy ma’nolarini ifodalovchi shakllar tizimidan iborat. Grammatik kategoriyalarda tilning o‘ziga xos xususiyati ochiq namoyon bo‘ladi. Masalan, rus tili (ayrim boshqa tillar) uchun xos grammatik jins kategoriyasi turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida yo‘q; rus tilida sifatlarga kelishik kategoriyasi xos, o‘zbek tilida esa sifat, odatda, turlanmaydi va boshqalar.

Qalandar Sapayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomli o‘quv qo‘llanmasida grammatik kategoriya to‘g‘risida keltirilgan fikrlar ham “O‘zbek tili nazariy grammatikasi”da grammatik kategoriya to‘g‘risidagi fikrlarga o‘xshaydi, lekin Sapaevning tili va uning uslubi nisbatan xalqchilligi, soddaligi bilan ajralib turadi².

Q.Sapayevning yozishicha, grammatik ma’no bilan uning shakliy ifodasi birgalikda grammatik kategoriyani tashkil qiladi. Grammatik kategoriyalar bevosita morfologiyaga xos bo‘lgan so‘z turkumlari, grammatik son, kelishik, zamon kabi hodisalarni shuningdek, sintagma, ega, kesim, to‘ldiruvchi kabi hodisalarni (sintaktik kategoriyalarni) o‘z ichiga oladi.

Q.Sapayev ham grammatik kategoriyalarni 2 turga:

1) morfologik kategoriya; 2) sintaktik kategoriyalarga ajratadi.

Olim grammatik kategoriyaga quyidagicha ta’rif beradi: O‘zaro bir-biriga zid qo‘yilgan va qiyosan olingan grammatik ma’nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari – grammatik shakllar tizimi morfologik kategoriya deyiladi.

²Қ. Сапаев. “Ҳозирги ўзбек тили”. Ўқув қўлланма.Т. 2009й. 100-б.

Morfologik kategoriyalar soʻzning qaysi turkumga kirishi bilan bogʻliq. Har bir soʻz turkumining oʻz grammatik kategoriyasi bor. Masalan: otlarda kelishik kategoriyasi, son kategoriyasi, feʼllarda shaxs-son kategoriyasi, nisbat (daraja), zamon shakllari tizimlarining har qaysisi oʻziga xos grammatik maʼnolar majmuasiga va shu maʼnolarning ifoda shakllari tizimiga ega.

Demak, oʻzaro bir-biriga zid qoʻyilgan va qiyosan olingan grammatik maʼnolar bilan shu maʼnolarni ifodalovchi shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.

Maʼlum maʼnodagi soʻz bir necha grammatik shakllarni olishi mumkin, lekin soʻzning maʼnosi oʻzgarmaydi. Grammatik kategoriya bir tomondan soʻzlarning leksik-grammatik xususiyati, yasalishi, vazifalari kabi hodisalar asosida ajratilgan guruhlar (ot kategoriyasi, feʼl kategoriyasi kabi), ikkinchi tomondan birlik, koʻplik, feʼllarda shaxs-son kabi grammatik vazifalarni affikslar, soʻz shakllari bilan bir xil xarakterdagi grammatik hodisalar majmuidir. Har bir soʻzning asosiy maʼnosi bor, yana umumiy maʼnosi bor, bu asosiy maʼnoga yoʻldosh, qoʻshimcha maʼno boʻlib keladi. Masalan: *paxtalar*, asosiy maʼno – oʻsimlik turi, qoʻshimcha maʼno - koʻplik. Umumiy xarakterdagi bir qancha soʻzlarda uchraydigan qoʻshimcha maʼno grammatik maʼno deyiladi. Grammatik maʼno turli vositalar orqali ifodalanadi (qoʻshimcha, yordamchi soʻz).

Har bir tilning oʻziga xos grammatik kategoriyalari mavjud. Masalan: oʻzbek tilida: son, egalik, zamon, kelishik kategoriyalari, rus tilida: rod, zamon, son kategoriyalari.

Son kategoriyasi miqdor munosabatiga asoslangandir. Bunda morfologik vositalar orqali predmet bir donaligi va koʻpligi ifodalanadi. Son kategoriyasi hamma tillarda uchraydi. Faqat ishlatilishi bir xil emas. Koʻpgina tillarda birlik maʼnosi koʻplikka nisbatan qarama-qarshi qoʻyilib taqqoslanadi. Bir xil tillarda ayrim otlar faqat birlik sonda, baʼzi otlar faqat koʻplik sonda beriladi. Turkiy tillarda deyarli hamma otlar birlik sonda, baʼzi otlar faqat koʻplikda beriladi. Baʼzi mavhum tushunchalar *muhabbat*, *ong* faqat birlikda ishlatiladi.

M.Hamroyev muallifligidagi nashr etilgan “Ona tili” o‘quv qo‘llanmasida ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni uchratishi mumkin³:

Otlar birlik va ko‘plik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Ko‘plik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlar ko‘plikda -lar qo‘shimchasi orqali ifodalansa, morfologik usul hisoblanadi: *bolalar*, *uyalar*. Ko‘plik ma’nosi qo‘shimchasiz holda maxsus so‘zlar yordamida ifodalansa, leksik usul hisoblanadi: *bir qancha odam*, *ming-ming daraxt*, *beshta daftar*. Ba’zan bu usullar aralash ifodalanishi mumkin (leksik-morfologik usul): *Ko‘p ota-onalar kelishdi*.

Harakat-holat, belgi nomini bildirgan otlar, donalab sanalmaydigan narsa va jism nomlari, juft predmetlarni bildiruvchi otlar va atoqli otlar faqat birlikda qo‘llanadi: *do‘stlik*, *un*, *ko‘z*, *Muattar* va h.

-lar qo‘shimchasi ko‘plik ma’nosidan tashqari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) narsalarning turini, navini xilini: *Do‘konga yog‘lar* (*guruchlar*, *suvlar* va h.) *keltirildi*; 2) jamlikni: *Ma’muraxonlar kelishdi*; 3) hurmatni: *Dadamlar ishlaydilar*;

4) kinoyani: *Janoblari kelibdilar-da*; 5) kuchaytirishni: *Boshlarim og‘rib ketdi*; 6) taxminni: *Soat beshlarda keladi*.

-lar ko‘rsatkichi otlardan tashqari olmosh, son, sifat, fe’l, ravish turkumidagi so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: *bular*, *kimlar*, *bizlar*, *tushuntirishlar*, *kattalarni*, *beshtar*, *ilgarilari*, *kelganlar* kabi. Bu ko‘rsatkich fe’lga qo‘shilganda tuslovchi tarkibida keladi: *boradilar* (3-shaxs tuslovchi tarkibida).

Jumladan, A.Nurmonov, Sh.Shahobidinova, Sh.Iskandarova, D.Nabiyevalarning “O‘zbek tili nazariy grammatikasi”⁴ da son kategoriasi

³ M.Hamraev. “Ona tili” . T.2009- y. 48-b.

⁴ А.Нурмонов, Ш.Шахобиддинова Ш.Искандарова, Д.Набиеваларнинг “Ўзбек тили назарий грамматикаси”Т.1978 й. 176-б.

ob'ektiv borliqdagi miqdor va uning lisoniy in'ikosi orasidagi doim ham oddiygina aks ettirish bilangina cheklanavermaydigan munosabatlardir deb ta'kidlanadi.

Miqdor – ko'plik va birlik - tushunchasi nafaqat tilshunoslik, balki ko'plab boshqa fanlar - matematika, falsafa, psixologiya kabilarga o'rganish manbaidir. Shunga ko'ra bu kategoriyaning tadqiqi faqat tilshunoslik emas, umuman ilm ravnaqi, turli fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash uchun ham ahamiyatlidir.

Mualliflar o'zbek tilshunosligida va umuman turkiyshunoslikda son kategoriyasining mazmunini tashkil etuvchi grammatik ma'no talqini uning ifodalanishi xususida quyidagicha fikrlarni ko'rsatishgan:

-lar qo'shimchasining ko'plikni ifodalashi masalasida deyarli barcha turkiyshunoslar hamfikir, ammo nol ko'rsatkich *Ø* shakl borasida buni ko'rolmaymiz. Ko'p hollarda *Ø* shakl (ya'ni morfologik ko'rsatkichning yo'qligi) birlik ma'nosininng ifodalovchisi sifatida qaraladi.

A.Nurmonov hammuallifligidagi darslikda *-lar* qo'shimchasiga o'zbek va umuman turkiy tillarning deyarli hammasida ko'plikni maxsus anglatuvchi yagona qo'shimcha sifatida qaraladi hamda *-lar* ifodalovchi xususiy ma'nolarni quyidagi ikki guruhga ajratadi.

- 1) son - miqdor ifodalovchi ma'nolar;
- 2) son kategoriyasi doirasidan chiquvchi ma'nolar.

Ikkinchi guruhga mansub ma'nolarni bizning tadqiqotimizga manba bo'lgan son kategoriyasi doirasidan chiqqani tufayli alohida tahlil etmaymiz. Bular *-lar* ning hurmat ifodalashda va tuslovchilar tarkibida yuzaga chiquvchi ma'nolaridir. «Fe'llardagi ko'plik holati otga (yo kishilik olmoshiga) uning soniga qarab moslanib yuradi. Bu jihatdan uning bizga asosiy ob'ekt bo'laolmasligini uqitib turadi».

Demak, *-lar* ning birinchi guruhga mansub xususiy ma'nolarigina son kategoriyasi tarkibiga kiradi:

Bu ma'no *-lar* ning eng ko'p uchrovchi xususiy grammatik ma'no (XGM) si bo'lib, u deyarli hamma turdagi (sanaladigan-sanalmaydigan, mavhum-aniq, atoqli-

turdosh...) otlar bilan munosabatlar natijasida yuzaga chiqaveradi.

Ko'plik *-larga* xos bo'lgan miqdoriy va sifatiy belgilardan miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo'linuvchanlikning bir vaqtda yuzaga chiqishi demakdir. Quyidagi misolga diqqat qilaylik:

Unda shirin-shrin bananlar bor.

Bu misoldagi so'z shakl (bananlar) da *-lar* ifodalagan miqdoriy ma'no noaniq (chunki bananlarning nechtaligi ma'lum emas), sifatiy jihatdan esa bo'linuvchanlik ifodalanmoqda (*bananlar* = *banan* + *banan* + *banan*).

Shuningdek, A.Nurmonov va b. hammuallifligidagi darslikda *-lar* qo'shimchasi grammatik ko'plikni ifodalashdan tashqari jamlik ma'nosi ba'zan sezilar-sezilmas, yo'ki bo'ysinuvchanlik xususiyatini ma'lum darajada saqlagan holda (a) yuzaga chiqsa, ayrim hollarda, xususan, turg'unlashib qolgan turkiy izofalarda yaqqol yuzaga chiqadi. Masalan, qiyoslang:

a) *kishilar orzusi, qushlar bayrami ...*

b) *ishchilar sinfi, o'qituvchilar ro'znomasi, fizkulturachilar kuni, kitoblar uyi...*kabi ma'nolarni anglatishi xususida ham quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Mazkur ma'lumotlarga asosan *-lar* qo'shimchasi birgalik, jamlik, taxmin, kuchaytirish, o'xshashlikni ifodalaydi.

-lar ga xos bo'lgan ko'plikni ifodalash xususiyati u qo'shilayotgan so'zning lug'aviy xususiyatiga qarab turlicha yuzaga chiqadi. Sanaladigan otlar bilan munosabati orqali ifodalangan narsalarning miqdori, sanalmaydigan otlar bilan munosabatda esa narsa va u bilan bog'liq yoki o'xshashlarning bo'linuvchan, noaniq miqdori ifodalanadi. Masalan, quyidagicha: Avazlarga g'isht quyib berdim . «Avazlar» «Avaz va uning oila a'zolari» ni bildiradi. Avvalgi, Sarvigullar o'qishni tugatishdi, ya'ni o'z bo'stoniga qaytib ketishdi, «Sarvigullar» «Sarvigul va unga o'xshashlar» demakdir.

-lar ning miqdoriy va sifatiy belgilari ayrim hollarda unga makon, zamon hamda vaqt o'lchamlarida taxminiylilikni ifodalash imkonini beradi. Masalan,

Adashmasam, uni urib burnini qonatganimda uch yoshlarda edi. «Uch yoshlar» taxminan uch yoshga yaqin bo'lgan davr, ikki va to'rt yosh oralig'i demakdir.

O'n yillar ilgari kamina ham shu qizlar yoshida edim. «O'n yillar» to'qqiz-o'n bir yillar orasidagi davrni taxminan ifodalamoqda.

-lar ning sifatli bo'linuvchanlik va noaniq miqdor ifodalash jihati uning real voqelikda miqdoran aniq va bo'linmas bo'lgan narsa nomlari bilan munosabatga kirishishiga to'sqinlik qilolmaydi.

Masalan, *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi azobim ...*

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova muallifligida nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili"⁵ darsligida o'zbek tilida ko'plik ma'nolarining ifodalanishi to'g'risida bir qator ma'lumotlar berilgan.

Darslikda ko'plik ma'nosini ifodalash otlarga xos xususiyatligi, ko'plik shakli morfologik, leksik usullar asosida hosil qilinishi, shuningdek, ko'plikni ifodalovchi *-lar* qo'shimchasi boshqa darsliklarda ifodalanganligi singari hurmat, ma'no kuchaytirish, taxmin, jamlik, kesatish kabi ma'nolarni ham anglatishi mumkinligi bir qator misollar asosida tushuntirib berilgan.

M.A.Hamrayev, D.A.Muhamedova, D.X.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva tomonidan yozilgan "Ona tili"⁶ darsligida otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasi ekanligi, otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan birlik son shakli va ko'plik son shakli tashkil etishi e'tirof etilgan.

Birlik son shaklida qo'llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikni, ajratilmaydigan predmetni anglatishi: *qalam, daftar, tog', uy, talaba* kabi. Birlik son shaklida qo'llangan ot maxsus grammatik ko'rsatkichga ega emasligi. Shuning uchun otning bunday qo'shimcha olmagan shakli (nol ko'rsatkichli

⁵R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" 2000й. T. 136-б.

⁶M.A.Hamroyev, D.A.Muhamedova, D.X.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva "Ona tili" T.2010 й. 134-с.

shakl) grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaralishi misollar bilan asoslangan.

Shuningdek, mazkur darslikda ko‘plik son shaklida qo‘llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko‘plikni) anglatadi: *qalamlar, daftarlar, tog‘lar, uylar, talabalar* kabi, deyilgan.

Otlarda grammatik ko‘plik son shakli *–lar* affiksi bilan hosil qilinadi.

Ko‘rinadiki, otlardagi birlik ma’nosi va ko‘plik ma’nosi hamda ularni ifoda etuvchi shakllar yig‘indisi son kategoriyasini hosil qiladi.

Otlarda son kategoriyasi birlik va ko‘plik ma’nosida qo‘llana oladigan otlarga xosdir. Sanash mumkin bo‘lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko‘plik son shaklida ham qo‘llanadi: *xona – uchta xona – xonalar; bola – besh bola – bolalar* kabi.

O‘zbek tilida birlik va ko‘plik son shakliga ega bo‘lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo‘llanadigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga abstrakt otlar (*sevgi, ishonch, ko‘ngil* kabi), donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar (*un, suv, yog‘, guruch* kabi), yakka bir predmetni anglatuvchi otlar (*til, bosh, yurak* kabi), juft predmetni anglatuvchi otlar (*ko‘z, qosh, qo‘l, etik, paypoq* kabi), atoqli otlar (*Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo* kabi) kiradi. Ayrim hollarda bu otlarga *–lar* ko‘plik affiksi qo‘shila oladi. Bunday holda *–lar* ko‘plik ma’nosini emas, balki quyidagi ma’nolarni ifodalab keladi:

1. Abstrakt otlar, yakka bir predmetni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda *–lar* affiksi qo‘shilganda ma’noni kuchaytiradi yoki ta’kidlaydi: Kumushning qoshlari chimirildi (A.Qodiriy).

2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga *–lar* affiksi qo‘shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo‘llicha kabi ma’nolarni bildiradi: Zilol suvlar, eram kabi bog‘u-bo‘stonlar (G‘ayratiy).

3. Atoqli otlarga qo‘shilganda esa umumlashtirish, birgalik kabi ma’nolarni bildiradi: Saidalar kelishdi kabi.

Shuningdek, qarindosh-urug'lik munosabatini bildiruvchi (*ota, ona, buvi, aka, opa* kabi) otlarga egalik qo'shimchasidan keyin *-lar* affiksi qo'shilganda, bu otlar hurmat ma'nosini anglatadi: *otamlar, opamlar, buvimlar* kabi.

Otlarda ko'plik ma'nosi turli xil usullar bilan ifodalanadi.

1. Otlarda ko'plik ma'nosi , asosan, *-lar* affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi. Ko'plik ma'nosining bunday maxsus grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanishi ko'plikning morfologik usul bilan ifodalanishi sanaladi: *eshiklar, ko'chalar* kabi. Bunday otlarga grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham ko'plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko'plik ma'nosi, asosan shu usul bilan ifodalanadi.

2. Otlarda ko'plik ma'nosi leksik ma'nosi ko'p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo'lsa ham, bir turdagi predmetlarning to'ldasini, jamini bildiradi: *to'da, gala, aholi, xalq, olomon* kabi. Ko'plik ma'nosini bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi leksik-semantik usul deyiladi. Bunday ma'nodagi otlarga grammatik jihatdan birlik shaklda, lekin semantik jihatdan ko'plikda deb qaraladi.

3. Otlarda ko'plik ma'nosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, so'zlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko'plik ma'nosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: *ko'p bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, to'da-to'da odam* kabi ma'lumotlar o'z aksini topgan.

M.Asqarova, R.Yunusov, M. Yo'ldoshev, D.Muhamedova muallifligidagi "O'zbek tili praktikumi"⁷ o'quv qo'llanmasida o'zbek tilida ko'plik ma'nolarining ifodalanishi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bu qo'llanmada ham otlarning birlik va ko'plik sonda ifodalanishi, ega bilan kesim har doim ham shaxs va sonda mos bo'lavermasligi misollar bilan asoslangan, shuningdek, *-lar* qo'shimchasining grammatik ko'plik ifodalash bilan chegaralanmasdan, taxmin, hurmat, kesatiq va boshqa shu kabi ma'nolarni ifodalashi xususida qisqacha ma'lumotlar, *Talabalarning*

⁷ M.Asqarova, R.Yunusov, M. Yo'ldoshev, D.Muhamedova/ "O'zbek tili praktikumi" T. 71-b.

fikrlari inobatga olindi. Talabalar fikri inobatga olindi kabi misollar orqali qisqacha tushuntirilib berilgan.⁸

M.Mirzayev, I.Rasulov, S.Usmonovlar muallifligida chop etilgan “O‘zbek tili” darsligida esa ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham oldingi tahlil qilgan adabiyotlarimizga mos keladi⁹.

R.Ikromova, A.Azizova, D.Muhammedova muallifligidagi “O‘zbek tili” darsligida¹⁰ ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi to‘g‘risida berilgan fikrlar M.Mirzayev, I.Rasulov, S.Usmonov muallifligidagi “O‘zbek tili” darsligidagi fikrlarga aynan o‘xshash. Bu yerda ham o‘zbek tilida ko‘plik ma’nolarining morfologik hamda leksik usullar asosida ifodalanishi, -lar qo‘shimchasi ko‘plik ma’nosidan tashqari bir qancha boshqa (hurmat, jamlik, kuchaytirish va kinoya)ma’nolarni ifodalashi e’tirof etilgan va tegishli misollar bilan asoslangan.

Bu ikki darslikda ham o‘zbek tilida ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi faqat ot so‘z turkumi doirasida yuz berishi xususida to‘xtanilib, boshqa turkumlardagi ko‘plik ma’nosining ifodalanishi xususida fikrlar ifodalanmagan. .

G‘.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev muallifligidagi nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ko‘plik kategoriyasi haqida ko‘p ma’lumotlar berilgan va yetarlicha izohlangan. Bu qo‘llanmada ifodalangan fikrlar oldin muhokama qilingan darslik va qo‘llanmalardagi materiallarga aynan o‘xshaydi. Lekin bir jihati borki, unga asosan boshqa turkumlarda ham grammatik ko‘plik ifodalash xususiyatiga xos bo‘lgan shakllar mavjudligi olmosh, fe’l turkumlari misollarida keltirib o‘tilgan. *Biz, siz, ular* kabi kishilik olmoshlari, *hamma, barcha, bari* singari

⁸М.Асқарова, Р.Халилов, М.Йўлдошев, Д.Муҳамедова “Ўзбек тили практикуми” “Иқтисод-молия” нашриёти Тошкент-2006 йил. 196-бет.

⁹М.Мирзаев, З.Расулов, С.Усмонов “Ўзбек тили”, “Ўқитувчи” нашриёти, тошкент 1978-йил. 164-бет

¹⁰Р.Икромова, А.Азизова, Д.Муҳамедова “Ўзбек тили” “Ўқитувчи” нашриёти Тошкент 1983 йил, 177-бет.

belgilash-jamlash olmoshlari, fe'ning birgalik nisbati shakllari bevosita ko'plikni ifodalashga xizmat qilishi ta'kidlab o'tilgan.

Agar bu mavzu bo'yicha maktab darsliklarini tahlil qiladigan bo'lsak, boshlang'ich ta'limning 2-4-sinf darsliklaridan tortib, 9-sinf darsligigacha otlarning birlik va ko'plik sonda qo'llanilishi hamda *-lar* ko'plik hosil qiluvchi qo'shimchaning hurmat ma'nosini ifodalashga xizmat qilishi misollar orqali izohlanganligiga guvoh bo'lamiz.

Qalandar Sapayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili"¹¹ nomli o'quv qo'llanmasida otlarga xos morfologik belgilardan biri uning grammatik son kategoriyasiga ega bo'lishi, o'zbek tilidagi grammatik son kategoriyasini bir-biriga qarama - qarshi qo'yilgan birlik va ko'plik shakllari tashkil etishi, birlik shakldagi otlar bir jinsdagi narsalardan bittasini tashkil etishi: *kitob, daftar, qalam; olma, o'rik, shaftoli*. ko'plik shakldagi otlar esa bir jinsdagi narsalarning ikki yoki undan ortiq, lekin konkret bo'lmagan miqdorini ifodalashi: *daftarlar, kitoblar, qalamlar; olmalar, o'riklar, shaftolilar* kabi misollar asosida ifodalangan.

Shuningdek, o'zbek tilida ham birlik, ham ko'plik shaklga ega bo'lgan otlardan tashqari faqat birlik shaklda qo'llanadigan otlar ham mavjudligi *un, yog', shakar, suv, go'zallik, yaxshilik, havo* kabi misollarni keltirish orqali tushuntirilgan.

Sapayev son shakllarida kelishi jihatidan otlarni ikki turga bo'ladi.

1. Birlik va ko'plik shaklga ega bo'lgan otlar.
2. Faqat birlik shaklga ega bo'lgan otlar.

Sanash mumkin bo'lgan aniq narsalarni anglatgan otlar birlik va ko'plik shaklda bo'ladi. Bunday otlar o'zlariga sanoq sonlarni biriktirib kela oladi: *bitta kitob, ikkita daftar, o'nta talaba*.

¹¹К. Сапаев "Нозирги ўзбек тили" ўқув қўлланма.Т. 2009й. 103-б.

Muallif o'zbek tilida ko'plik ma'nosi otlarda quyidagi uch xil usul bilan yasalishini ifodalagan:

- a) morfologik usul;
- b) leksik-semantik usul;
- d) aralash usul.

Morfologik usulda ko'plik ma'nosi asosga *-lar* affiksini qo'shish bilan ifodalanadi. *Bolalar, kitoblar* kabi. O'zbek tilida *-lar* affiksi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi.

1. Shaxs yoki narsaning ko'pligini ifodalaydi: *daraxtlar, uylar, talabalar*. Masalan: *Taqir yerning ko'rinishi juda boshqacha: maysalar, lolaqizg'aldoqlar, chuchmomolar, xuddi ko'rpa yopib qo'ygandek qip-qizil, yashil tusda tovlanadi. (H.No'mon).*

2. Egalik affiksdan keyin qo'shilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: *dadamlar, oyimlar, xolamlar, akamlar* kabi.

3. Payt bildiruvchi ravishlarga, payt, o'rin, yoki narsa sonini bildiruvchi birikmalarga qo'shilib, chama, taxmin ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi: *soat 11 larda, (ko'rishmoq) kechqurunlari suhbatlashmoq, kechalari sayr qilmoq* kabi.

4. *-lar* affiksi uyushiq bo'laklarning har biriga qo'shilganda ko'plik, ta'kid, hurmat ma'nolarini ifodalaydi. 1. *Bahor. Maktab bog'idagi o'riklar, olmalar, gilolar chaman kabi ochilgan.* 2. *Haydar, Qo'chqor, Komillar bir ko'rpada tepkilashib katta bo'lishgan. (Uyg'un).*

Leksik - semantik usul bilan quyidagicha yasaladi:

1) sanoq sonlar, gumon olmoshlari va miqdor ravishlari o'ni aniqlab keladi: *bir necha bola, ko'p kitob, har xil qalam* kabi;

2) otga sifatlovchi bo‘lib kelgan ot, sifat, son, takrorlanadi: *dasta-dasta gul, to‘da-to‘da olomon, qop-qop bug‘doy, tog‘-tog‘ xirmon* kabi.

3) juft so‘zlar orqali ham ko‘plik–umumlashtirish ma’nolari ifodalanadi: *uy-ro‘zg‘or, qozon-tovoq, qo‘ni-qo‘shni, meva-cheva, do‘st-yor, qarindosh-urug‘* kabi.

Aralash usulda yasalişda yuqoridagi har ikkala usuldagi vositalar qatnashadi: *Ko‘p ota-onalar kelishdi, dasta-dasta gullar terishdi, tog‘-tog‘ xirmon uyushdi* kabi.

Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari darsliklarida quyidagi ma’lumotlar bor:

Otlarning *–lar* qo‘shimchasini olgan shakli ko‘plik shakli, *–lar* qo‘shimchasisiz qismi esa birlik shakli sanaladi.

Otlarning ko‘plik shakli ko‘plik ma’nosidan tashqari hurmat, umumlashtirish kuchaytirish (ko‘zim, ko‘zlarim, labi-lablari) ma’nolarini ham ifodalashi mumkin.

–lar otlarga qo‘shilib doimo ko‘plikni bildiravermaydi. U birlik ma’nosini o‘zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda *–lar* hurmat, tasviriylilikni kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish ma’nolarida qo‘llanadi. Masalan, ushbu misollarga diqqat qiling: *ko‘zlarimga ishonmayman* – tas’irchanlik, ifodalilik; *boshlarim og‘rib ketdi* – kuchaytirish, ta’kidlash; *ko‘z yoshlarini artdi* – tasviriylilik, ifodalilik; *Mirzacho‘llar obod bo‘ldi* – joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligi ma’nolari anglashiladi.

Qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarga ko‘plik shakli qo‘shilib hurmat ma’nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanilishiga ko‘ra ko‘plik va egalik qo‘shimchalarining o‘rinlashishi farqlanadi:

1. I shaxs egalik qo‘shimchasi bilan kelganda ko‘pincha egalik qo‘shimchasi oldin, ko‘plik qo‘shimchasi esa undan keyin keladi: Masalan, *Dadamlar keldilar. Opamlar salom aytdilar*. Agar bu tartib o‘zgarib, ko‘plik shakli oldin, egalik

keyin kelsa, shaxsning ko'pligini ifodalash mumkin: Qiyoslang: Opalarim kelishdi.

2. Ko'plik shakli. II shaxs egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llanilganda, ko'plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko'plik shakli hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *Xayriniso, dadamning opalari bo'ladilar.*

Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyevlar muallifligidagi "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida ham boshlang'ich sinflarda Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi to'grisida aynan 3- sinfda, "ot" so'z turkumi atama bilan o'rgatila boshlanadigan davrda ushbu mavzuga ham amaliy jihatdan yondoshiladi. Darslikda jumladan shunday deyiladi: 3-sinfda otlar, ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda: 1). birlik va ko'plikda qo'llangan otlarning manosi va qo'shimcha orqali farqlash; 2). birlikdagi otdan ko'plik shaklidagi va aksincha ko'plik shaklidagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish; 3). gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: *daftar- daftarlar, qalam- qalamlar, nok- noklar* kabi. Suhbat asosida daftar so'zi nechta (bitta) predmetni va daftarlar so'zi nechta (ikki va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi. Boshqa so'zlar bilan ham shunday ishlanadi. Oddiygina xulosa chiqariladi va faktlar umumlashtiriladi. Agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda qo'llanadi, agar ikki va undan ortiq shaxs yoki narsani bildirsa, ko'plikda qo'llanadi. Ko'plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga *-lar* qo'shimchasi qo'shiladi. Birlikdagi otlar *kim?* yoki *nima?* so'rog'iga, ko'plikdagi otlar esa *kimlar?* yoki *nimalar?* so'rog'iga javob bo'ladi.

Biroq hali bu sinf o'quvchilariga faqat birlikda qo'llanadigan otlar va birlik shaklida qo'llangan *armiya*, *qo'shin*, *xalq* kabi otlar ko'plik ma'nosini bildirishi, bunday otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda qanday ma'no anglatishi tushuntirilmaydi. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini kuzatish aslida so'z shakli ustida ishlashning boshlangich bosqichi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili asosida xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zaro bir-biriga zid qo'yilgan va qiyosan olingan grammatik ma'nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari – grammatik shakllar tizimiga morfologik kategoriya deb ataladi. Grammatik kategoriyalar 2 turga: morfologik kategoriya hamda sintaktik kategoriyalarga ajratiladi.

Otlar birlik va ko'plik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Ko'plik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlar ko'plikda *-lar* qo'shimchasi orqali ifodalansa, morfologik usul hisoblanadi: bolalar, uylar. Ko'plik ma'nosi qo'shimchasiz holda maxsus so'zlar yordamida ifodalansa, leksik usul hisoblanadi: bir qancha odam, ming-ming daraxt, beshta daftar. Ba'zan bu usullar aralash ifodalanishi mumkin (leksik-morfologik usul): Ko'p ota-onalar kelishdi.

Sanash mumkin bo'lgan aniq narsalarni anglatgan otlar birlik va ko'plik shaklda bo'ladi. Bunday otlar o'zlariga sanoq sonlarni biriktirib kela oladi: bitta kitob, ikkita daftar, o'nta talaba. *Biz*, *siz*, *ular* kabi kishilik olmoshlari, *hamma*, *barcha*, *bari* singari belgilash-jamlash olmoshlari, fe'ning birgalik nisbati shakllari bevosita ko'plikni ifodalashga xizmat qilishi mumkin.

1-BOB. OT TURKUMIDA KO'PLIK MA'NOLARINING IFODALANISHI

Biz bilamizki, predmetning ma'nosini anglatib, grammatik son, egalik, kelishik kategoriyalariga ega bo'lgan mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi. Otlarda 3 ta grammatik kategoriya mavjud. Ular son, egalik, kelishik kategoriyalaridir. Mavzumizga aloqador kategoriya bu asoson **son** kategoriyasi hisoblanadi.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini ifodalovchi grammatik ma'no va grammatik shakllar yig'indisi **son kategoriyasi** deyiladi. Son kategoriyasi ikki shaklni o'z ichiga oladi. Ular birlik shakl hamda ko'plik shakllardir.

Birlik shakli bitta predmetni ko'rsatadi. Masalan, *mamlakat, xalq, daryo* kabi. Birlik shaklining maxsus ko'rsatgichi bo'lmagani uchun uni nol ko'rsatgichli shakl deb ataymiz. Ko'plik son shakli ikki va undan ortiq predmetlarni anglatadi va maxsus *-lar* affiksi orqali ifodalanadi. Masalan, *mamlakatlar, xalqlar, daryolar* kabi. O'zbek tilida *-lar* affiksi ko'plikdan tashqari donalab sanab bo'lmaydigan predmetlarni bildiruvchi otlarga qo'shilib, ularning navini, turini ko'rsatadi. Ba'zi otlarga qo'shilib hurmat ma'nosini ifodalaydi.

Yakkalikni, juftlikni bildiruvchi otlarga hamda mavhum otlarga qo'shilib ma'noni kuchaytiradi. Bundan tashqari *-lar* affiksi ayrim so'zlarga qo'shilib tahminni ifodalaydi. Atoqli otlarga qo'shib ularni turdosh otlarga aylantiradi. Ba'zi holatlarda kinoya ma'nosini ham ifodalaydi. Ushbu hususiyatlar haqida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

1.1. Otlarda ko'plik ma'nolarining morfologik usulda ifodalanishi

Ma'lumki, otlar birlik va ko'plik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Ko'plik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlar ko'plikda *-lar* qo'shimchasi orqali ifodalansa, morfologik usul hisoblanadi: *kitoblar, mashinalar*. Ko'plik ma'nosi qo'shimchasiz holda maxsus so'zlar yordamida ifodalansa, leksik usul hisoblanadi: *bir qancha kitob, ming-ming askar, sakkizta qalam*. Ba'zan bu usullar aralash ifodalanishi mumkin, bunday hollarda

otlarda ko‘plikning ifodalanishiga leksik-morfologik usul, ayrim adabiyotlarda aralash usul deb ham yuritiladi. Masalan, *Kecha o‘tkazilgan tadbirga juda ko‘p mehmonlar tashrif buyurishdi*. (“Murabbiylar kuni”, 2-sinf O‘qish kitobi, 34-bet).

Otlarda ko‘plik ma‘nosi, asosan, *-lar* affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Ko‘plik ma‘nosining bunday maxsus grammatik ko‘rsatkich bilan ifodalanishi ko‘plikning morfologik usul bilan ifodalanishi sanaladi: *eshiklar, ko‘chalar* kabi. Bunday otlarga grammatik jihatdan ham, ma‘no jihatidan ham ko‘plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko‘plik ma‘nosi, asosan shu usul bilan ifodalanadi. Ushbu bo‘limda otlarda ko‘plik ma‘nosining morfologik usul bilan ifodalanishi to‘g‘risida to‘xtalamiz. Demak, otlarning *-lar* qo‘shimchasini olib ko‘plik ma‘nosini hosil qilgan shakli morfologik usul hisoblanadi.

Qishloq yigitlari birin- ketin bo‘y cho‘zib, harbiyga keta boshladi.

(“Bobonur”, hikoya, Safar Barnoyev, O‘qish kitobi, 3- sinf, 97- bet).

Yigitlari- ko‘plikdagi ot so‘z turkumiga oid so‘z, ushbu so‘zda *-lar* affiksi ko‘plikni ifodalagan. Ko‘plik esa morfologik usulda hosil qilingan. Shunga o‘xshash yana misollarni ko‘rib chiqamiz.

Bolalar duv etib o‘rinlaridan turdilar va “Assalomu alaykum!” deya ta‘zim qilgach, qayta o‘rinlariga cho‘kdilar.

(“Bola Alisher”, (qissadan parcha), Oybek, O‘qish kitobi, 3- sinf, 71- bet).

Bu gapdagi *bolalar, o‘rinlaridan, o‘rinlariga* so‘zlari ko‘plikdagi ot, *-lar* affiksi ko‘plikni ifodalagan, so‘zlarda ko‘plik ma‘nosi morfologik usulda ifodalangan.

...*Tomlar oppoq, yer oppoq,*

Shox, novdalar arg‘imchoq.

(“Birinchi qor”, Shuhrat, O‘qish kitobi, 3- sinf, 78- bet).

Tomlar, novdalar so‘zlari ham ko‘plikdagi ot, bunda ham *-lar* affiksi ko‘plikni bildirgan va ko‘plik ma‘nosi morfologik usulda ifodalangan.

-larga xos bo‘lgan ko‘plikni ifodalash xususiyati u qo‘shilayotgan so‘zning lug‘aviy xususiyatiga qarab turlicha yuzaga chiqadi. Sanaladigan otlar bilan munosabat orqali ifodalangan narsalarning miqdorini, sanalmaydigan otlar

bilan munosabatda esa narsa va u bilan bog‘liq yoki o‘xshashlarning bo‘linuvchan, noaniq miqdori ifodalanadi. Masalan,

U kechasi hovliga chiqib, beg‘ubor osmondagi yulduzlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘rarkan.

(“Koinotga sayohat”, (fantastik ertak), A. Umarov, 3-sinf o‘qish kitobi, 103-bet).

Berilgan misolda *yulduzlarni* – ko‘plikdagi ot, – *lar* affiksi ko‘plikni anglatishga hizmat qilgan, –*lar* qo‘shimchasi sanaladigan predmetga qo‘shilganligi bois narsa, ya’ni yulduzlarning ko‘pligiga ishora qilingan, biroq ularning miqdori noaniqligicha qolaveradi, ko‘plik morfologik usulda shakllangan.

- “Qushlarni sayr eturmen, bir-biridan ko‘rkam... “ – deb javob berdi Alisher...

(“Alisherning yoshligi”, Oybek, 4-sinf o‘qish kitobi, 102-bet).

Qushlarni – ko‘plikdagi ot, –*lar* affiksi ko‘plikni ifodalagan, morfologik usulda ko‘plik hosil qilingan bo‘lib, bu o‘rinda ham predmet, narsaning birdan ortiqligi anglashiladi va predmetning miqdori noaniqlik xususiyatiga ega.

Yana bir misol. *Bunda mashinasozlik, samolyotsozlik kabi sanoat tarmoqlari, yerosti qazilma boyliklari, qishloq xo‘jaligi qayta ahamiyat kasb etadi.* (4- sinf, O‘qish kitobi, 3 bet)

Ushbu gapdagi *tarmoqlari, boyliklari* so‘zlari ko‘plikdagi ot, -*lar* affiksi ko‘plikni ifodalaydi, morfologik usulda ko‘plik hosil qilingan.

Yana bir misol:

U yo‘l-yo‘lakay daraxtlar bilan do‘stlashdi.

(“Ikki irmoq”, Habib Po‘latov, 4-sinf o‘qish kitobi, 145-bet).

Daraxtlar – ko‘plikdagi ot so‘z turkumi –*lar* affiksi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Ushbu misolda –*lar* affiksi donalab sanaladigan predmetga qo‘shilib, uning birdan ortiq ekanligini, ko‘plik shakldaligini ifodalamoqda.

Kuzning birinchi oyi mevalar, sabzavot maxsulotlari, qovun- tarvuzlar serob bo'lishi bilan dillarga quvonch baxsh etadi.

(“Sahovatli kuz”, 4- sinf O‘qish kitobi, 20- bet).

Mevalar, sabzavot maxsulotlari, olmalar- ko‘plikdagi ot, *–lar* affiksi ko‘plik ma’nosini ifodalagan, ko‘plik ma’nosi morfologik usulda ifodalangan.

Faqatgina otlar emas, otlashgan so‘zlar ham *–lar* qo‘shimchasini olib ko‘plikni anglatishi mumkin. Fikrimizni misollar bilan tasdiqlaymiz.

Keyin kitobdan o‘rganganlarini ishga solibdi.

(“Ilmli ming yashar”, Nurmat Maqsudiy, 3- sinf, 56- bet).

Ushbu gapdagi *o‘rganganlarini* so‘zi ko‘plikdagi otlashgan sifatdash, unga qo‘shilib kelgan *–lar* affiksi ko‘plikni ifodalagan, bu so‘z ham morfologik usulda ifodalangan.

O‘tgan davr mobaynida yoshi ulug‘lar ham, yoshi kichiklar ham qayta tug‘ildi.(4- sinf “O‘qish kitobi”, 3- bet, “Mangulikka tatigulik kun”).

Mazkur gapdagi *ulug‘lar, kichiklar-* ko‘plikdagi otlashgan sifatiga *–lar* affiksi qo‘shilib ko‘plikni anglatgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Yana shunga o‘xshash misollarni ko‘rib chiqishni davom ettiramiz.

U hukm chiqarishda gunohkor va gunohsizlarni chek tashlash yo‘li bilan aniqlar ekan.(“Donishmand yigit”, o‘zbek xalq ertagi, 3- sinf O‘qish kitobi, 30- bet).

Gunohsizlarni- otlashgan sifatga *–lar* affiksi qo‘shilib ko‘plikni bildirgan, morfologik usulda ifodalangan. Ushbu so‘zda *–lar* affiksi ham qisman bo‘lsada sifatning otlashishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Yuqorida ifodalaganimiz kabi *–lar* qo‘shimchasi ot va otlashgan so‘zlarga qo‘shilish natijasida ko‘plik ma’nosini ifodalaydi. Quyida yana boshlang‘ich sinf o‘qish kitobidagi ayrim misollarga e’tiborni qaratamiz:

Uning ma’ruzalarini tinglaganlar umr bo‘yi “Bizni Ozod Sharofiddinov o‘qitgan”, deb g‘ururlanib yurishadi. (“Matonatli ustoz”, O‘qish kitobi, 3- sinf, 16-bet).

Keltirilgan gapdagi *tinglaganlar*- koʻplikdagi otlashgan sifatdosh boʻlib, *-lar* affiksi koʻplikni anglatgan, morfologik usulda ifodalangan.

Keyingi misol:

Asir tushganlarni bozorda qul qilib sotar ekanlar.

Asir tushganlarni - koʻplikdagi qoʻshma otlashgan sifatdoshga *-lar* affiksi qoʻshilib koʻplikni anglatgan, koʻplik morfologik usulda ifodalangan.

U oʻz asarining mazmuni bilan oʻtirganlarni tanishtirdi.

(“Hisob ilmidagi yangilik”, M. Osim, 3-sinf oʻqish kitobi, 119-bet).

Oʻtirganlarni –koʻplikdagi otlashgan sifatdosh, *-lar* affiksi koʻplikni ifodalagan, morfologik usulda koʻplik hosil qilingan.

Yana bevosita boshlangʻich sinf Oʻqish kitobida otlarda koʻplikning morfologik usul bilan ifodalanishiga doir misollarga eʼtiborimizni qaratamiz.

Otlarda koʻplik turlovchi egalik qoʻshimchalari asosida ham hosil qilinadi. Masalan, *Kuz kelganda uyimizda toʻy boʻladi*,

Qoʻzichogʻim oʻsib katta qoʻy boʻladi.

(“Kuz kelganda”, Tolib Yoʻldosh, 3-sinf oʻqish kitobi, 45-bet).

Mazkur misolda *uyimizda* – ot soʻz turkumiga xos soʻz boʻlib, unga 2-shaxs koʻplikdagi egalik qoʻshimchasi qoʻshilib, asos ifodalagan tushuncha sohiblarining koʻpligini ifodalayapti, yaʼni morfologik usulda koʻplik maʼnosi hosil qilingan.

Bolalar, siz uy ishlarida ota- onangiz va kattalarga yordam berasizmi?

(“Tejamli boʻling”, 2-sinf Oʻqish kitobi, 51-bet).

Ushbu gapdagi *ota- onangiz* soʻzlari koʻplikdagi ot hisoblanib, koʻplik juft soʻz yordamida ifodalangan va egalik qoʻshimchasi gapda asos ifodalagan tushunchalar sohiblarining koʻpligini bildiradi. Juft soʻz hamda egalik qoʻshimchasi birgalikda koʻplikni ifodalagani uchun koʻplik leksik-morfologik usulda ifodalangan deymiz.

Maktabimiz bogʻida sayraydi bulbul

Begʻubor osmonda uchar bemaʼlol.

Erkin havolardan yayraydi koʻngil,

Biz Vatan umidi, sog'lom barkamol.

(“Gulg‘unchalarmiz”, Muhiddin Omon, 4- sinf O‘qish kitobi, 18- bet).

Yuqoridagi misralarda keltirilgan *maktabimiz* otiga qo‘silib kelgan egalik qo‘shimchasi asos ifodalagan tushuncha sohiblarining ko‘pligini bildiradi. Ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Aynan shu kabi holatni 3-sinf o‘qish kitobi 155-betidan o‘rin olgan Ilyos Muslimning “Lola” she‘ridan olingan mazkur parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

Bahor keldi elimizga,

Ko‘m– ko‘k bo‘ldi bog‘, dala.

Elimizga- otiga 1-shaxs ko‘plikdagi egalik qo‘shimchasi qo‘shilib, asos ifodalagan tushuncha sohiblarining ko‘pligini ifodalaydi. Mazkur misolimiz ham otlarda ko‘plikni ifodalashning morfologik usuliga misol bo‘la oladi.

Poytaxtimizda ko‘p qavatli osmono‘par binolar, istirohat bog‘lari bor.

(“Toshkentim onam”, O‘qish kitobi, 3- sinf, 13 bet”)

Ushbu misoldagi *poytaxtimizda* so‘ziga egalik qo‘shimchasi otlarga qo‘shilib asos ifodalagan tushunchaning sohibi ko‘pligini ifodalaydi, morfologik usulda ko‘plik hosil qilingan.

Maktabimiz bog‘ida sayraydi bulbul

Beg‘ubor osmonda uchar bemalol.

Erkin havolardan yayraydi ko‘ngil,

Biz Vatan umidi, sog'lom barkamol.

(“Gulg‘unchalarmiz”, Muhiddin Omon, 4- sinf O‘qish kitobi, 18- bet).

Maktabimiz- otga qo‘silib kelgan egalik qo‘shimchasi asos ifodalagan tushuncha sohiblarining ko‘pligini bildiradi. Morfologik usulda ifodalangan.

Ona diyorimizda oltin kuz sepini yoygan. (“Oltin kuz”, O‘qish kitobi, 3- sinf, 44- bet, yilnomadan).

Diyorimiz soʻzida egalik qoʻshimchasi otga qoʻshilib asos ifodalagan tushuncha sohiblarining koʻpligini bildirgan, koʻplik morfologik usulda ifodalanagan.

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili asosida xulosa sifatida aytish mumkinki, otlar birlik va koʻplik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Koʻplik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi, otlarda koʻplikning morfologik usulda ifodalanishi asosan *-lar* affiksi asosida amalga oshiriladi va ular narsalarning, shaxslarning koʻp, birdan ortiq ekanligini anglatishga xizmat qiladi. Shuningdek, Oʻqish kitobidagi misollarda otlarda koʻplikning turlovchi qoʻshimchalar yordamida ifodalanish holatlarini ham kuzatdik.

1.2.OTLARDA KOʻPLIK MAʼNOLARINING LEKSIK USULDA IFODALANISHI

Yuqorida otlar koʻplikda *-lar* qoʻshimchasi orqali ifodalansa, morfologik usul hisoblanishini koʻrib oʻtdik. Eʼtirof etganimizdek otlarning koʻplik shakli har doim ham *-lar* qoʻshimchasi yordamida ifodalanavermas ekan. Koʻplik maʼnosi qoʻshimchasiz holda maxsus soʻzlar yordamida ifodalansa, leksik usul hisoblanadi. Shu bois malakaviy bitiruv ishimizning mazkur boʻlimida bevosita boshlangʻich sinf oʻqish kitoblari misolida otlarning leksik usulda ifodalanishiga alohida toʻxtalaib oʻtamiz.

Otlarda koʻplik maʼnosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, soʻzlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan koʻplik maʼnosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: *koʻp bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, toʻda-toʻda qoʻy* kabi. Endi oʻqish kitobida koʻplikning leksik usulda ifodalanishiga eʼtiborni qaratamiz.

Baʼzan otlar oldidan miqdor sonlarning kelishi oʻzbek tilida koʻplikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Qadim oʻtgan zamonda ikki farishta olim boʻlgan ekan.

(“Til qudrati” (rivoyat), O‘qish kitobi, 3- sinf, 18-bet).

Keltirilgan misoldagi *ikki farishta* so‘zi ko‘plikdagi ot, ko‘plik son orqali hosil qilingan, ushbu misolda ko‘plik ma‘nosi liksik usulda ifodalangan bo‘lib farishtalarning birdan ortiqligiga ishora mavjud. Shunga o‘xshash yana bir misolni ko‘rib chiqamiz.

U bir hafta o‘n kunlab yo‘l bosadi.

(“Qoida”, Hakim Nazir, O‘qish kitobi, 3-sinf, 173- bet).

Ushbu misolda ham *o‘n kunlab* so‘zida ot oldidan kelgan son yordamida ko‘plik ifodalangan, ko‘plik leksik usulda ifodalangan.

O‘qish kitobidagi misollar tahlili ko‘plik ma‘nosining leksik usul bilan ham ifodalanishini ko‘rsatib berdi. Unda ayrim hollarda sanoq sonlar, gumon olmoshlari va miqdor ravishlari otni aniqlab keladi. Masalan,

Oq yo‘l senga, oppoq qish,

Himmatingga ming olqish.

(“Birinchi qor”, Shuhrat, 3-sinf o‘qish kitobi, 78-bet).

Ushbu misolda *ming olqish* otini aniqlab kelgan son ko‘plikni ifodalash uchun xizmat qilgan. Demak, ko‘plik son orqali leksik usulda ifodalangan. Ko‘rib chiqqanimiz yuqoridagi misollardan ma‘lum bo‘ladiki, ot so‘z turkumida ko‘plik faqat qo‘shimchalar yordamida emas, balki ayrim so‘zlar hamda quyida keltirilganlar asosida ham hosil bo‘lar ekan:

Bir chuqurda ming o‘ra.

(“Topishmoqlar”, O‘qish kitobi, 3-sinf, 68- bet).

Ming o‘ra- ko‘plikdagi ot hisoblanib, ko‘plik son orqali leksik usulda ifodalangan.

Yana bir misol, Oradan bir necha kun o‘tibdi. (“Barakalla, bo‘tam”, ertak, 3-sinf O‘qish kitobi, 111-bet).

Bir necha kun – bu so‘z ham ko‘plikdagi ot, ko‘plik ravish orqali (*bir necha* so‘zi *ko‘p, mo‘l* ma‘nolarini ifodalaydi) leksik usulda ifodalangan.

Ayrim hollarda juft soʻzlar ham oʻzbek tilida koʻplik maʼnosini shakllantirishi mumkin, juft soʻzlar orqali ham koʻplik–umumlashtirish maʼnolari ifodalanadi. Masalan:

Olmasam gar koʻnglim toʻlmas,

Ota- onam duosini.

(“Ota- ona duosi”, Safo Ochil, oʻqish kitobi, 3-sinf, 168 bet).

Bu keltirilgan misoldagi juft soʻz *ota-onam* koʻplikdagi ot hisoblanadi va gapimizda koʻplik maʼnosi leksik usulda hosil qilingan.

Malomatdan ota- oʻgʻil

Tamom horib- toldilar.

Gʻazab bilan bir- biriga

Termilishib qoldilar.

(“Sharq hikoyasi”, Abdulla Oripov, 4- sinf “Oʻqish kitobi”, 134- bet).

Ota- oʻgʻil- bu soʻz koʻplikdagi ot, koʻplik maʼnosi juft soʻz yordamida, shu bilan birga leksik usulda ifodalangan.

Otga sifatlovchi boʻlib kelgan ot, sifat, son, takrorlanib ham koʻplik ifodalanishi mumkin, *dasta-dasta gul, toʻda-toʻda olomon, qop-qop bugʻdoy, togʻ-togʻ xirmon* kabi. Quyidagi misol fikrimizni tasdiqlaydi.

Koʻz onʻgimda saxiy gʻoʻzam,

Savat- savat olma- anor.

Koʻz oʻngimda tonggi gullar

Dehqon desam koʻz oʻngimda

Namoyondir yoz quyoshi.

(“Dehqon”, S. Rahmon, 4- sinf Oʻqish kitobi, 25- bet).

Savat- savat olma- anor. Ushbu misolda takrorlanib qoʻllangan ot juft soʻzga sifatlovchi boʻlib kelgan va koʻplikni ifodalagan. Shu bilan birga juft otning oʻzi ham alohida koʻplikni bildiradi. Sifatlovchi koʻplik maʼnosini yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Koʻplik leksik usuda ifodalangan.

1.3. OTLARDA KO‘PLIK MA’NOLARINING LEKSIK-MORFOLOGIK USULDA IFODALANISHI

Malakaviy bitiruv ishimizning oldingi bo‘limlarida o‘zbek tilida ko‘plik ma’nosi otlarda morfologik usul hamda leksik usul bilan yasalishi xususida to‘xtaldik. Mazkur bo‘limda esa otlarda ko‘plik ma’nosining aralash ya’ni leksik – morfologik usul bilan yasalishi xususida fikr yuritamiz.

Aralash usulda yaslashda yuqoridagi har ikkala usuldagi vositalar qatnashadi. Darslikdagi misollarga murojaat qilamiz:

Bu yerda qadimdan bizning ota-bobolarimiz yashagan.(“Ona-Vatan” Muhabbat Hamidova, 3- sinf “O‘qish kitobi”, 12- bet).

Ushbu misolda *ota-bobolarimiz* so‘zi ko‘plikdagi ot so‘z turkumi bo‘lib, undagi ko‘plik juft so‘z hamda –lar affiksi yordamida hosil bo‘lgan. Ko‘plik leksik-morfologik usulda ifodalangan. Ayrim hollarda egalik qo‘shimchasi ham ushbu usulda ifodalangan otlarga qo‘shilib ham asos ifodalagan tushunchaning sohibi ko‘pligini bildiradi.

Shu kabi misollar bilan birin- ketin tanishib chiqishni davom ettiramiz.

O‘z qo‘li bilan tayyorlagan dori-darmonlar bemorga yaxshi ta’sir qilganini ko‘rdi.

Dori– darmonlar. Ushbu misolda ko‘plikdagi ot juft so‘z hamda -lar affiksi orqali ifodalangan. Bunda juft so‘z ko‘plikni ifodalagan bo‘lsa, -lar affiksi ko‘plik ma’nosini kuchaytirish uchun hizmat qilgan. Ko‘plik ifodalanishida leksik usul hamda morfologik usul birga qo‘llangani uchun bu usul aralash usul deb ham yuritiladi.

Yuqoridagi misollarda juft so‘zlarga –lar qo‘shimchasi qo‘shilib, ko‘plik ma’nosini hosil qilish bilan birga shaxs hamda predmet turlarining ko‘pligiga ham ishora qiladi.

Tog`- toshlar orasiga yo‘l olibdi.

(“Ona mehri” (ertak), O`ktam Usmonov. O`qish kitobi, 3- sinf, 172 bet).
*Tog`-toshlar-* ko`plikdagi ot, juft so`zlarga - *lar* affiksi qo`shilib ko`plikni ifodalagan, leksik- morfologik usulda ifodalangan.

U beixtiyor nevarasining yuz- ko`zlaridan o`pib, bag`riga bosdi.

(4- sinf “O`qish kitobi”, “Qodir boboning orzusi”, T.Xayit,7- bet).

Bu misoldagi *yuz-ko`zlaridan* so`zi ko`plikdagi ot. Juft so`z hamda -*lar* affiksi ko`plikni anglatgan. Ko`plik leksik- morfologik usulda ifodalangan.

Odamlar bir shahardan ikkinchisiga borish uchun ko`pincha ot- aravalarda va piyoda yurardilar.

(“Toshkent”, Erkin Malikov, O`qish kitobi, 3- sinf, 64- bet).

Ot-aravalarda- ko`plikdagi ot, chunki juft so`zga -*lar* affiksi qo`shilib ko`plikni ifodalagan, ko`plik qo`shimchasi ma`noni yanada kuchaytirish uchun xizmat qilgan, ko`plik leksik- morfologik usulda ifodalangan.

Keyingi misolimizda esa son hamda -*lar* ko`plik qo`shimchasi leksik- morfologik usulda ko`plikni vujudga keltirgan.

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon o`zbegin.

(“O`zbegin”, Erkin Vohidov, O`qish kitobi, 3 sinf, 14- bet).

Ming asrlar- ot so`z turkumi oldidan kelgan son ko`plikni ifodalagan, shuningdek, misolimizda ot -*lar* qo`shimchasini ham olgan, ko`plikda ikki usul qo`llangani bo'is leksik- morfologik usul bilan ifodalangan.

Shunga o`xshash yana bir misol:

*Bundan ming yillar ilgari soylik degan joyda yalmog`iz kampir yashagan ekan.* (“Ona mehri”, (ertak) O`ktam Usmonov, O`qish kitobi, 3- sinf, 169-bet).
Ming yillar- bunda ham ot so`z turkumi oldidan kelgan son ko`plikni ifodalagan, ko`plikdagi ot -*lar* qo`shimchasini ham olgan ma`noni kuchaytirgan. Ko`plikda ikki usul qo`llangani bo'is leksik- morfologik usul bilan ifodalangan.

Otga sifatlovchi bo`lib kelgan ot, sifat, son, takrorlanib ham ko`plik ifodalanishi mumkin. Quyidagi misol fikrimizni tasdiqlaydi.

Ko`z on`gimda saxiy g`o`zam,

Savat- savat olma- anor.

Ko‘z o‘ngimda tonggi gullar

Dehqon desam ko‘z o‘ngimda

Namoyondir yoz quyoshi.

(“Dehqon”, S. Rahmon, 4- sinf O‘qish kitobi, 25- bet).

Savat- savat olma-anor. Ushbu misolda takrorlanib qo‘llangan ot juft so‘zga sifatlovchi bo‘lib kelgan va ko‘plikni ifodalagan. Shu bilan birga juft otning o‘zi ham alohida ko‘plikni bildiradi. Sifatlovchi ko‘plik ma’nosini yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Ko‘plik leksik- morfologik usuda ifodalangan.

Otlarda ko‘plik ma’nosi turlovchi egalik qo‘shimchalari asosida ham hosil qilinadi. Yana bevosita boshlang‘ich sinf O‘qish kitobidagi otlarda ko‘plikning leksik-morfologik usul bilan ifodalanishiga doir misollarga e’tiborimizni qaratamiz.

Masalan, *Bolalar, siz uy ishlarida ota- onangiz va kattalarga yordam berasizmi?*(“Tejamli bo‘ling”, 2-sinf O‘qish kitobi,51-bet).

Ota- onangiz- ko‘plikdagi ot, ko‘plik juft so‘z yordamida ifodalangan va egalik qo‘shimchasi gapda asos ifodalagan tushunchalar sohiblarining ham ko‘pligini bildiradi. Ko‘plik leksik- morfologik usulda ifodalangan. 3-sinf o‘qish kitobining 80-betidan o‘rin olgan S. Barnoyevning “Bosh kitob” nomli she’ridan olingan quyidagi parchada ham xuddi shu holatni ko‘rishimiz mumkin:

Ozod, erkinlikning

Ramzi – bu kitob.

Unda aks etgandir

Haq – huquqimiz. (“Bosh kitob”, S. Barnoyev, 3-sinf o‘qish kitobi, 80-bet).

To‘rtlikdagi *haq-huquqimiz*– juft otlariga egalik qo‘shimchasi qo‘shilib, asos ifodalagan tushuncha sohiblarining, shuningdek, bevosita juft so‘z yordamida otdan anglashilayotgan tushuncha(huquqlar)ning ko‘pligi

ifodalangan. bu misolda ham otlarda ko‘plik leksik- morfologik usulda ifodalangandir.

1.4. OTLARDA KO‘PLIK MA’NOLARINING SEMANTIK USULDA IFODALANISHI

O‘zbek tilida faqat birlikda qo‘llanadigan otlar bilan bir qatorda hech qanday ko‘plik qo‘shimchasini olmay ham ko‘plik ma’nosini bildiradigan otlar ham mavjud. Tilimizda bunday otlarni **jamlovchi otlar** deb ataymiz. Bunday so‘zlarning ichki ma’nosida ko‘plikning mavjudligi sabab, bu ifodalanishni **semantik** ifdalanish deb oldik.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida ham biz jamlovchi otlar ishtirokidagi gaplarga duch kelamiz. Bunday gaplarda jamlovchi otlar ko‘plik ma’nosini ifodalab beradi. Masalan, *Elga xizmat, oily himmat*. (“Maqol”, O‘qish kitobi, 160-bet, 3- sinf)

Elga- ko‘plikdagi ot, ma’nosiga ko‘ra ko‘plikni ifodalovchi so‘z, mazkur so‘zimizda ko‘plik ma’nosi semantik usulda ifodalangan.

Jarchi viloyat ahlini Xokan adirlariga chorlaydi.

(“Sayilda”, Mirzo Karim, 3-sinf o‘qish kitobi, 135-bet).

Bu misolda ham *ahlini* – ko‘plikdagi ot, ko‘plik semantik usulda ifodalangan.

El boshiga tushgani –

Er boshiga tushgani.

(“Maqollar”, 3-sinf o‘qish kitobi, 100-bet).

El – ko‘plikdagi ot bo‘lib, ko‘plik semantik usulda ifodalangan. Keying misol:

Vatanimni, xalqimni

Ko‘z qoramdek saqlayman.

Askar akamga o‘xshab

El ishonchin oqlayman.

(“Botir askarcha”, Habib Rahmat, 3-sinf o‘qish kitobi, 99-bet). Ushbu she’riy parchada xalqimni, el so‘zlari jamlovchi so‘zlar bo‘lib, ko‘plikdagi ot hisoblanadi, ko‘plik semantik usulda ifodalangan. Shu kabi misollarni yana ko‘rib chiqamiz.

Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting.

(“Eng ulug‘ fazilat”, 4- sinf O‘qish kitobi, 29- bet).

Xalqqa- ko‘plikni bildiruvchi jamlovchi ot, ko‘plik semantik usulda ifodalangan.

Ko‘p o‘tmay, ikkinchi saxiy el nazaridan qoldi.

(“ Ikki saxiy”, 4- sinf O‘qish kitobi, 39- bet).

El- ko‘plikni bildiruvchi jamlovchi ot, ko‘plik semantik usulda ifodalangan.

Quyida keltirilgan misoldagi jamlovchi ot, ravishga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan hosil qilingan.

Ko‘pchilik kelib, o‘z nasibasini olib ketdi.(“Bobonur”, S. Barnoyev, 3-sinf O‘qish kitobi, 98-bet).

Ko‘pchilik – ko‘plikni anglatuvchi ot, ko‘plik semantik usulda ifodalangan. Yana bir misol:

Kichiklar kattalarga, yolg‘iz odam jamoat bo‘lib turganlarga salom beradi.

(“Salomlashish odobi”, Husayn Voiz Koshifiy, 4-sinf O‘qish kitobi, 26- bet).

Jamoat- ko‘plidagi jamlovchi ot semantik usuldako‘plikni ifodalangan.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, ot so‘z turkumiga oid so‘zlar yakka holda ko‘plik ma‘nosini anglatadi va bunday holatda ko‘plik ma‘nosi semantik usulda ifodalangan deyiladi.

1.4. Ot turkumida –lar qo‘shimchasining boshqa ma‘nolari

Malakaviy bitiruv ishimizning oldingi bo‘limlarida o‘zbek tilida ko‘plik shaklining morfologik, leksik va leksik–morfologik usullar asosida ifodalanganligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdik. Ishimizning mazkur bo‘limida esa –lar qo‘shimchasining ma‘nolari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, *-lar* otlarga qo'shilib doimo ko'plikni bildiravermaydi. U birlik ma'nosini o'zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda *-lar* hurmat, tasviriylilikni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish, jamlik ma'nolarida qo'llanadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida uchraydigan misollarga e'tiborimizni qaratamiz.

Men, Hasan, Husan, Fotima, Zuhralar mashinaga chiqib oldik.

(“Qovun sayli”, Shukur Sa'dulla, 4- sinf O'qish kitobi, 22- bet).

Zuhralar bunda *-lar* affiksi atoqli otga qo'shilib Zuhra va unga o'xshashlar guruhini ifodalayapti. Chunki, *-lar* affiksi sanaladigan otlar bilan munosabati orqali ifodalangan narsalarning miqdorini, sanalmaydigan otlar bilan munosabatda esa narsa va u bilan bog'liq yoki o'xshashlarning bo'linuvchan, noaniq miqdorini va jamligini ifodalaydi.

Shuningdek, *-lar* affiksi yordamida tas'irchanlik, ifodalilik, kuchaytirish, ta'kidlash, tasviriylilik ma'nolari anglashiladi. Bu xususida mavzumiz davomida batafsil to'xtalamiz. Hozircha quyidagi misollarga e'tibor qiling:

Noklar, shaftolilar, olmalar g'arq pishadi, uzum va anor ham dasturxonni bezaydi. (“Saxovatli kuz”, 4- sinf O'qish kitobi, 20- bet).

Noklar, shaftolilar, olmalar- bu otlarga qo'shilgan *-lar* affiksi ko'pliknigina anglatib qolmay, balki kuchaytirish, ta'kidlash hamda ta'sirchanlikni oshirish kabi ma'nolarni ham ifodalagan. Demak *-lar* affiksi uyushiq bo'laklarning har biriga qo'shilganda ko'plik, ta'kid ma'nolarini ham ifodalaydi.

Qarindoshlikni bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shilib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llanadi. Qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanilishiga ko'ra ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'rinlashishi farqlanadi.

Bir misol:

Hozirchi, men borib Pirmat bobomlarga yordam beraman.

(“Yaxshilik”, hikoya, Farhod Musajonov, O'qish kitobi, 3- sinf, 102-bet).

Bobomlarga- ushbu gapda *-lar* affiksi hurmat ma'nosini anglatadi. Biroq bu misolda ot I shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelgan, ko'plik qo'shimchasi esa

undan keyin keldi. Mobodo, ushbu tartib o'zgarsa, yani ko'plik shakli oldin, egalik keyin kelsa, otlardagi ko'plik ifodalangan bo'lardi: *bobolarim...*

Shunday ekan, *-lar* affiksi otlarga qo'shilib faqat ko'plikni ifodalamaydi. U birlik ma'nosini o'zgartirmaydi, bunda *-lar* qo'shimchasi hurmat, tasviriylilikni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish ma'nolarida qo'llanadi. Ko'plik va egalik qo'shimchalarining joylashish tartibi qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Shuningdek, qarindosh-urug'lik munosabatini bildiruvchi (*bobo, xola, amaki kota, opa* kabi) otlarga egalik qo'shimchasidan keyin *-lar* affiksi qo'shilganda, bu otlar hurmat ma'nosini anglatadi. Bunday holatda I shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelganda ko'pincha egalik qo'shimchasi oldin, ko'plik qo'shimchasi esa undan keyin keladi: Masalan, *bobomlar, xolamlar, amakimlar, opamlar* kabi. Qarindoshlikni bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shilib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanilishiga ko'ra ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'rinlashishi farqlanadi.

Berilgan misollarga e'tiboringizni qarating.

Bobom o'g'liman.

- *Nega, aytgin-da?*

- *Chunki bobomlar,*

Polvon bo'lgan-da!..

(“Kurashchi bola”, Habib Rahmat, 2- sinf O'qish kitobi, 60- bet).

Bobomlar otida *-lar* affiksi so'zga qo'shilib hurmat ma'nosini ifodalagan.

Yuqorida berilgan misollardan ham shu mazmun anglashiladiki, otga qo'shilgan *-lar* affiksi hurmat ma'nosini izohlaydi. Ko'plik shakli affiksi *-lar*, I shaxs egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llanganda, egalik shakli oldin, ko'plik shakli esa keyin keladi va ko'plik qo'shimchasi shakli hurmat ma'nosini ifodalaydi. Agar bu tartib o'zgarib, ko'plik shakli oldin, egalik keyin kelsa, shaxsning ko'pligini ifodalash mumkin: Qiyoslaylik: *bobolarim, xolalarim, amakilarim* kabi.

Ko‘plik shakli III shaxs egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llanilganda, ko‘plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko‘plik shakli hurmat ma’nosini ifodalaydi. Quyidagi misol bilan fikrimizni isbotlaymiz:

O‘rnilariga meni sotinglar.

(“O‘g‘lon”, “Qirq hadis”dan, O‘qish kitobi, 3-sinf, 69-bet).

O‘rnilariga- ko‘plik qo‘shimchasi otga qo‘shilgan, ushbu so‘zda *–lar* affiksi hurmat ma’nosini ifodalagan. Yana shunga o‘xshash misol:

Shu payt uzoqdan qo‘shnilari Pirmat boboning kelayotganini ko‘rib qoldi.

(“Yaxshilik”, hikoya, Farhod Musajonov, O‘qish kitobi, 3- sinf, 103-bet).

Q‘o‘shnilari- ushbu otga qo‘shilgan *–lar* affiksi ham hurmat ma’nosini ifodalagan.

O‘zbek tilida birlik va ko‘plik son shakliga ega bo‘lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo‘llanadigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga mavhum otlarni misol qilib keltirish mumkin, ya’ni bularga *sevgi, ishonch, muhabbat, vijdon, do‘stlik* kabi so‘zlar misol bo‘ladi. Faqat bitta, yakka predmetni anglatuvchi otlar ham mavjud. Bunday otlarga *bosh, til, tomoq, yurak, oshqozon* kabi so‘zlarni kiritamiz. Aksincha juft predmetni anglatuvchi otlar ham mavjudki, bu kabi otlarga *qo‘l, oyoq, ko‘z, yuz* kabilar misol bo‘ladi. *–lar* affiksining sifatli bo‘linuvchanlik va noaniq miqdor ifodalash jihati uning real voqelikda miqdoran aniq va bo‘linmas bo‘lgan narsa nomlari bilan munosabatga kirishishiga to‘sqinlik qilolmaydi.

Shuning uchun ham, bu otlarga *–lar* ko‘plik affiksi qo‘shila oladi. Bunday holda *–lar* ko‘plik ma’nosini emas, balki kuchaytirish hamda ta’kidlash ma’nolarini ifodalab keladi. Bunday ma’nolar agar *–lar* qo‘shimchasi mavhum otlarga, bitta predmetni anglatuvchi otlarga va juft predmetni anglatuvchi otlarga qo‘shilganda uchraydi.

Masalan, *Tulki ko‘zlarini surbetlarcha Qizilishtonga qadabdi.*

(“Qish ertagi”, Aziza Axmedova, O‘qish kitobi, 3-sinf, 86-bet).

Ko‘zlarini- ko‘plikdagi ot bo‘lib, *–lar* affiksi kuchaytirish, ta’sirchanlik ma’nolarini ifodalagan.

Keyingi misolga e'tiborimizni qarataylik:

Sirpanchiq qanotlari yaraq- yaraq qiladi.

(“Chana”, O‘tkir Hoshimov, O‘qish kitobi, 3- sinf, 81- bet).

Qanotlari - ko‘plik qo‘shimchasi otga qo‘shilib, *–lar* affiksi so‘zni kuchaytirish ma’nosini ifodalagan.

Yuqorida keltirilgan gaplardagi *ko‘z, qanot* kabi predmetlarning miqdori bizga ma’lum albatta, shu boisdan *–lar* affiksi bu so‘zlarning ko‘pligini ifodalaganlikdan ko‘ra ularga “ta’sirchan bo‘yoq” bergan desak to‘g‘riroq bo‘ladi.

Faqat birlik shaklida qo‘llanadigan otlarga donalab sanab bo‘lmaydigan narsalarni bildiruvchi otlarni ham kiritamiz. Bularga *suv, yog‘, shakar* kabi so‘zlar misol bo‘ladi. Donalab sanab bo‘lmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga *–lar* affiksi qo‘shilganda, shu predmetning turini, navini yoki mo‘llik kabi ma’nolarni bildiradi:

Kechqurun sho‘rva, atala-umoch, moshxo‘rda kabi ovqatlarni pishiradi.

(“Mehnatkash qiz”, Oybek, “Qutlug‘ qon” romanidan, 3-sinf O‘qish kitobi, 67-bet).

Ushbu gapda *ovqatlarni* so‘zida *–lar* qo‘shimchasi xil, nav ma’nolarini ifodalagan va ovqatlar turining ko‘pligini anglatgan.

Faqat birlik shaklida qo‘llanadigan otlarga narsalarning nomini bildiruvchi atoqli otlar ham kiradi. Masalan, *Toshkent, Surxondaryo, Nilufar, Abdulhay* kabi.

Atoqli otlarga *–lar* affiksi qo‘shilganda esa birgalik, umumlashtirish kabi ma’nolarni bildiradi. Masalan, *Arablar ham Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, o‘z yerlarini boshqa yerlardan ziyoda ko‘radi.*

(“Vatanni suymak”, Abdulla Avloniy, O‘qish kitobi, 3- sinf, 10- bet).

–lar qo‘shimchasi grammatik ko‘plik ifodalash bilan chegaralanmasdan, narsalarninig turini, navini bildirishi, umulashtirish, taxmin, hurmat, ma’no kuchaytirishi, kesatiq va boshqa shu kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin.

2-BOB. FE'L TURKUMIDA KO'PLIK MA'NOLARINING IFOLDALANISHI

Ish- harakat yoki holatni bildirgan soʻzlarga fe'l deyiladi. Fe'llar gap tarkibidagi ifodasiga ko'ra *nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi?* kabi soʻroqlarga javob bo'ladi. Fe'llar ham bir qancha leksik va grammatik hususiyatlarga ega. Ular o'ziga xos ma'no turlariga ega. Fe'llarning harakat, holat fe'llari, nutq fe'llari, faoliyat-jarayon fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari kabi turlari mavjud. Fe'l soʻz turkumi ham o'zining xususiy kategoriyalariga ega. Ular mayl kategoriyasi, nisbat kategoriyasi, shaxs- son kategoriyasi, zamon kategoriyasi hamda bo'lishli- bo'lishsizlik kategoriyalaridir. Ko'plik ma'nosi va uni ifodalovchi qo'shimchalar yuqorida sanab o'tilgan kategoriyalarning deyarli har biri bilan aloqador ekanlini tahlil qilamiz.

2.1.Fe'llarda ko'plikning morfologik usulda ifodalanishi

Malakaviy ishimiz davomida bayon qilingan fikrlarga hamda adabiyotlar tahlillariga asoslangan holda aytish mumkinki, ko'plik asosan ot soʻz turkumiga xos bo'lgan grammatik hodisa hisoblanadi. Buni biz bitiruv malakaviy ishimizning dastlabki bobi hamda bo'limlarida ko'rib o'tdik. Lekin turli adabiyotlarda boshqa soʻz turkumlari, jumladan, fe'l soʻz turkumi yordamida ham ko'plik ma'nosini ifodalash mumkinligi xususida ayrim fikrlar keltirilgan bo'lib, ular misollar bilan asoslangan. Masalan, nutqimizda qo'llanadigan *kelishdi, borishdi, olmoqchimiz, berasiz, kuldik, kelsinlar* kabi fe'llar ishtirokidagi gaplarda bevosita ko'plik ma'nosi ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz.

Shunga o'xshash fe'llarni boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi misollar orqali tahlil qilishga kirishamiz.

Ayrim fe'llarga **shaxs-son** qo'shimchalari (*-k, -ngiz*) qo'shilishi natijasida ham ko'plik ma'nosi hosil qilinadi.

Shox va shoir, sarkarda Bobur Mirzoning ruhini shod etdik.

(“Mangulikka tatigulik kun”, 4- sinf, “O`qish kitobi”, 3- bet).

Shod etdik- ko`plik shaklidagi fe`l, ko`plik shaxs-son qo`shimchasi yordamida ifodalangan, ko`plik morfologik usulda ifodalangan.

Fe`llarga qo`shiladigan tuslovchi qo`shimchalar (-siz, -miz, -lar) ham ko`plik ma`nosini anglatadi. Masalan,

Ota dedi – o`g`lim bundan

Na sen, na men tingaymiz.

O`g`il dedi: - “Ota, buni

Galma-galdan mingaymiz.”

(“Sharq hikoyasi”, A. Oripov, 4-sinf o`qish kitobi, 133-bet).

Tingaymiz, mingaymiz – ko`plikdagi fe`l, -miz shaxs-son qo`shimchasi ko`plikni anglatgan, ko`plik morfologik usulda ifodalangan.

Dilda tuyub vatan mehrin, yurt haqida o`ylaymiz.

Shu boisdan madhin to`lib, toshib kuylaymiz.

(4- sinf “O`qish kitobi”, “Ozod vatan mehri” G`. Shomurod, 8- bet).

*o`ylaymiz, kuylaymiz-* ko`plikdagi fe`l, fe`llarga qo`shilgan shaxs- son qo`shimchasi ko`plikni ifodalagan, ko`plik morfologik usulda ifodalangan.

Biz ham shu yerda tug`uldik, shu yerda o`smoqdamiz. (“Ona-Vatan”, Muhabbat Hamidova, 3- sinf, 12 bet).

*o`smoqdamiz-* ko`plikdagi fe`l, -miz ko`plikdagi shaxs- son qo`shimchasi ko`plikni anglatgan, ko`plik morfologik usulda ifodalangan.

-G`ani amakining bog`ida hazonchinak qilamiz,- dedi dadasi.

(“Xazonchinak”, O`tkir Hoshimov, O`qish kitobi, 3- sinf, 56-57- bet).

xazonchinak qilamiz- ko`plikdagi fe`l, shaxs-son qo`shimchasi fe`llarga qo`shilib ko`plikni ifodalaydi, morfologik usulda ifodalangan.

Yegulik haqida keyin o`ylab ko`rarmiz.

(“Qish ertagi”, Aziza Ahmedova, O`qish kitobi, 3- sinf, 86- bet).

o`ylab ko`rarmiz- ko`plikdagi fe`l, shaxs- son qo`shimchasi ko`plikni ifodalaydi, ko`plik morfologik usulda ifodalangan.

Hammamiz qishga tayyorgarlik ko‘rishimiz kerak, bo‘lmasa qiynalib qolamiz. – debdi. (“Ko‘p korgan ko‘p biladi”, ertak, 2- sinf O‘qish kitobi, 113-bet).

Tayyorgarlik ko‘rishimiz kerak, qiynalib qolamiz- ko‘plikdagi fe‘l, shaxs-son qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Demak, fe‘llarga shaxs-son qo‘shimchasini qo‘shish orqali ko‘plik munosabati anglashiladi.

Buyruq- istak mayli qo‘shimchalari (*-aylik, -ing(lar), -sinlar*) orqali ham ko‘plikni ifodalash mumkin. Bu qo‘shimchalar fe‘llarga qo‘shilib buyruqni, istakni yoki maslahatni Yana darsliklardan olingan misollarga murojaat qilamiz.

Galma-galdan ucha qolaylik...

(“Chana”, O‘.Hoshimov, 3-sinf O‘qish kitobi, 83-bet).

Ucha qolaylik- ko‘plikdagi fe‘l, *-lik* buyruq- istak mayli qo‘shimchasi ko‘plikni anglatgan, ko‘plik tuslovchi yordamida morfologik usulda ifodalangan.

Yana bir misol:

- Unday bo‘lsa, qani kurashaylik, - debdi Sher.

(“O‘tinchi yigit bilan Sher”, 2- sinf O‘qish kitobi, 103- bet).

Kurashaylik- ko‘plikdagi fe‘l, mayl qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Keying misol, *Kiyimlaringizga razm soling.*

(“Kiyimlar nimalardan tikiladi?”, 2- sinf O‘qish kitobi, 48- bet).

Razm soling - ko‘plikdagi fe‘l, fe‘l asosiga buyruq- istak mayli qo‘shimchasi *-ing* qo‘shilib II- shaxs ko‘plik fe‘lini bildirgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Kichik bir xulosa sifatida aytish mumkinki, fe‘llardagi mayl kategoriyasida ham ko‘plikni anglatuvchi ma’nolar mavjud.

Fe'llarning **sifatdosh** hamda **ravishdosh** shakllari ham turli tuslovchi qo'shimchalar yordamida ko'plik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *Mehmon bo'libmiz uch kun.* (2- sinf O'qish kitobidan).

Bo'libmiz ravishdoshi I- shaxs tuslovchi qo'shimcha yordamida ko'plikni anglatgan.

Keltirilgan misollarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, fe'llar hamda ularning shakllari fe'llarga qo'shib keluvchi tuslovchi qo'shimchalar yordamida o'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalashga hizmat qiladi.

2.2. Fellarda ko'plik ma'nolarining –lar affiksi yordamida ifodalanishi

Oldingi bobdagi kichik xulosalarga va ilmiy asarlardagi tahlillarga tayanib shu fikrga kelamizki, ko'plik asosan ot so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik hodisadir. Biroq tadqiqotlarimiz natijasida yig'ilgan misollar shuni ko'rsatadiki, otlarda ko'plikni ifodalanishiga asosiy sababchi bo'lgan –lar affiksini fe'l turkumiga oid so'zlar tarkibida ham uchratish mumkin. –lar affiksi fe'llarga qo'shib ham ko'plikni ifodalashdan tashqari, ta'kid, hurmat kabi ma'nolarni ham ifodalashi mumkin.

2.2.1 Sof fe'llarda ko'plikning ifodalanishi

Tadqiqotlarimiz natijasida yig'ilgan misollar shuni ko'rsatadiki, otlarda ko'plikni ifodalovchi –lar affiksini fe'l turkumiga oid sof so'zlar tarkibida ham uchratib ko'plik ma'nolarni ifodalashi mumkinligiga guvoh bo'lamiz. Mavzuni ochish davomida bu jihatlariga birma-bir to'xtalib o'tamiz.

Hotamtoydan: O'zingizdan ham saxiyroq odamni uchratganmisiz? – deb so'rabdilar. (“Saxiy”, Muhammad Avfiy, 4- sinf O'qish kitobi, 135- bet).

So‘rabdilar- ushbu misolda o‘tgan zamon fe’liga *–lar* affiksi qo‘shilib ko‘plik (ko‘pchilik)ni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Yana shunga o‘xshash misollarni ko‘rib chiqamiz.

Do‘stlar mening yurtimni

O‘zbekiston deydilar,

Doim tutgan dunyoni

Bog‘u bo‘ston deydilar...

(4- sinf, “O‘qish kitobi”, Serquyosh o‘lka, Zafar Diyor, 8 -bet).

Deydilar - ushbu misollardagi fe’llarga *–lar* affiksi zamon qo‘shimchasidan so‘ng qo‘shilgan va ko‘plikni bildirgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

To‘rt kishi safarda uzoq yuribdilar.

(“Mayib kitob” (Qiziq voqea), 2- sinf O‘qish kitobi, 29- bet).

Bu misolda ham *yuribdilar* ko‘plikdagi fe’l, *–lar* affiksi o‘tgan zamon qo‘shimchasidan so‘ng qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Ko‘plikni ifodalovchi *–lar* affiksi qo‘shma fe’llarga qo‘shilib ham ko‘plikni bildiradi.

Ular shahar chekkasiga yetib bordilar...

(“Dangasa o‘g‘il”, 2- sinf O‘qish kitobi, 56- bet).

Yetib bordilar- ko‘plikdagi qo‘shma fe’l, *–lar* affiksi ko‘plikni anglatgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Yosh tabibni ichkariga taklif etdilar.

(“Kitobga ixlos”, M. Osim, o‘qish kitobi, 3-sinf o‘qish kitobi, 121-bet).

Taklif etdilar – qo‘shma fe’lga *–lar* affiksi qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Ko‘plik qo‘shimchasi fe’llarga shaxs- son qo‘shimchasidan keyin qo‘shilib ham ko‘plikni ifodalaydi.

Qarasalar, yov tog‘ tepasiga chiqib olib, shahar xalqini toshbo‘ron qilyapti.

(“Oltmish gaz arqon”, ertak, Oydin, O‘qish kitobi, 3- sinf, 76- bet).

Qarasalar- ko‘plikdagi fe’l, –lar affiksi fe’lga shaxs- son qo‘shimchasidan so‘ng qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

2.2.2 Fe’ning vazifadosh shakllarida ko‘plikning ifodalanishi

Fe’ning vazifadosh shakli bo‘lgan harakat nomi otga yaqin turuvchi shakl bo‘lgani uchun unda otga xos xususiyatlar ham mavjud. Fe’ning harakat nomi shakliga –lar affiksi qo‘shilib ko‘plikni ifodalashi mumkin.

Ularning qafas ichra tinimsiz sakrashlarini, sayrashlarini uzoq kuzatdi.

(“Alisherning yoshligi”, Oybek, 4- sinf O‘qish kitobi, 102- bet).

Sakrashlarini, sayrashlarini- fe’ning vazifadosh shakliga –lar qo‘shimchasini olib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Navkarlariga Dehqonboboni saroyga olib kelishlarini buyuribdi.

(“Dono Dehqonbobo”, ertak, Bekmirza Mahmudov, 2- sinf, O‘qish kitobi, 99- bet).

Olib kelishlarini- ko‘plikdagi fe’l, ko‘plik fe’ning harakat nomi shakliga –lar affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Ko‘rganlar aytsin. (2-sinf, O‘qish kitobi) Mazkur misolda *ko‘rgan* otlashgan sifatdosha *–lar* qo‘shimchasining qo‘shilishi natijasida ham ko‘plik ma’nosi hosil qilingan.

2.2.3 Fe’ning mayl shakllarida ko‘plikning ifodalanishi

Fe’ning mayl shakllari ham ko‘plikni ifodalashi mumkin.

Tog‘am har safar: - Qovun poliziga boringlar, handalak so‘yib beraman! – derdi. (“Qovun sayli”, Shukur Sa’dulla, 4- sinf O‘qish kitobi, 21- bet).

Boringlar- ushbu misolda buyruq- istak mayli qo'shimchasi *-inglar* fe'l asosiga qo'shilib ko'plikni ifodalaydi. Aslida qo'shimchani *-ing* qismi ham ko'plikni anglatish uchun yetarli bo'lardi. Shunday ekan mayli qo'shimchasi tarkibida *-lar* affiksining mavjudligi buyruqni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Eshitmadim demanglar,

Eshitganlar jilmanglar. (4-sinf "O'qish kitobi"dan). Bu misolda ham buyruq- istak mayli qo'shimchasi fe'l asosiga qo'shilib ko'plikni ifodalaydi, *-lar* affiksi buyruq ma'nosini kuchaytirgan.

- *Barakali bo'linglar, hosilingiz mo'l bo'lsin, omboringiz donga to'lsin, to'q, farovon yashanglar,* - deb nasihat qilar ekan.

- ("Dehqonbobo", O'qish kitobi, 2- sinf, 21- bet).

Barakali bo'linglar, yashanglar- ko'plikdagi fe'l *-lar* affiksi fe'lga qo'shilib ko'plikni anglatadi, ko'plik morfologik usulda ifodalangan.

2.2.4 Fe'llardagi *-lar* affiksining boshqa ma'nolarni ifodalashi

Fe'llarda ham *-lar* affiksi otlardagi kabi ko'plikdan tashqari boshqa ma'nolarni ifodalab keladi.

Quyida keltiriladigan keyingi misolga diqqatimizni qaratamiz:

Rahim bobo murakkab bu ishni juda tez va sifatli bajaradilar.

("Kulol", 2- sinf O'qish kitobi, 47- bet).

Bajaradilar - bu fe'lga qo'shilgan *-lar* affiksi hurmat ma'nosini ifodalaydi. Ushbu misoldan ko'rinadiki, *-lar* affiksi faqatgina otlarga qo'shilib emas, balki fe'lga qo'shilib ham hurmat ma'nosini bildiradi.

Keltirilgan misollarga tayangan holda shuni ko'rsatadiki, fe'llar va uning kategoriyalari hamda fe'llarning vazifadosh shakllariga *-lar* affiksi qo'shilib o'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. *-lar* affiksi ko'plikdan tashqari hurmat ma'nosini ham ifodalaydi.

2.3. Fellarda ko‘plikning nisbat affikslari yordamida ifodalanishi

Bilamizki, ish- harakat bajaruvchisining bu jarayonga ishtirok etish darajasini ifodalovchi fe‘l shakllariga fe‘l nisbatlari deyiladi. Fe‘llarda ko‘plik nisbat qo‘shimchalari yordamida ham ifodalanishi mumkin. Boshlang‘ich sinf O‘qish kitoblarini tahlil qilish jarayonida fe‘llarda ko‘plik birgalik nisbatining -sh, -ish qo‘shimchalari yordamida ham hosil bo‘lishining guvohi bo‘ldik. E’tiboringizni bir nechta misollarga qaratmoqchimiz.

Payg‘ambardan: -Islomda qaysi ish eng yaxshi sanaladi? –deb so‘rashibdi.

(“Eng yaxshi ish” (hadisdan), Imom Buxoriy, 3- sinf, 118- bet).

so‘rashibdi- ko‘plikdagi fe‘l, birgalik nisbat qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Yana bir misolga e’tiborimizni qarataylik:

Shaharga kirib- chiqish uchun ulkan darvozalar qurib, soqchilar qo‘yishdi.

(“Toshkent”, Erkin Malikov, O‘qish kitobi, 3- sinf, 63- bet).

Soqchilar qo‘yishdi- ko‘plikdagi fe‘l, birgalik nisbati fe‘lga qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Birgalik nisbat qo‘shimchasi ishtirokidagi fe‘llarni ko‘plikdagi fe‘l deyilishiga bosh sabab shuki, bu kabi fe‘llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki predmet tomonidan bajarilganligini bildiradi. Bu esa ko‘plik (ko‘pchilik) ma’nosini anglatadi. Yana misoliarga e’tibor beramiz.

So‘ngroq ipak matolardan, qog‘ozdan kitob tayyorlashda foydalanishgan.

(“Kitob”, O‘qish kitobi, 2- sinf, 27- bet).

Foydalanishgan- ko‘plikdagi fe‘l, birgalik nisbat qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Keyingi misol:

Yovni tog‘dan toshdek tappa-tappa yumalatib tushira berishibdi.

(“Oltmish gaz arqon”, ertak, Oydin, O‘qish kitobi, 3- sinf, 76- bet).

Tushira berishibdi - ko‘plikdagi fe‘l, birgalik nisbati ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

- *Safar, mehmonlar ko‘rinishdimi?*

- *Ko‘rinishmadi.*

(“Yaxshi bo‘ldi”, N. Fozilov, 4-sinf O‘qish kitobi, 122-bet). Mazkur misoldagi *ko‘rinishmadi* to‘liqsiz gapi faqatgina bir fe’ldan iborat va kelishi kerak bo‘lgan odamlarning ko‘pligini anglatmoqda.

Ko‘chishimizdan bir kun oldin akam bilan otam mollarni haydab, yangi uyimizga ketishdi.

(“Kichik Vatan”, A. Jo‘rayev, 4- sinf O‘qish kitobi,15- bet).

Ketishdi- ko‘plikdagi fe’l, birgalik nisbat qo‘shimchasi ko‘plikni bildirgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

- *To‘g‘ri aytasiz, bunaqa antiqa qo‘zilar kam tug‘iladi, - ularning gapini quvvatlashibdi qo‘ylar.*

(“Qo‘zichoq”, Rauf Tolib, 4- sinf O‘qish kitobi, 39- bet).

Quvvatlashibdi- ko‘plikdagi fe’l, nisbat affiksi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Birgalik nisbat qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalashiga oid yana misol:

Non yeganda lablari

Burni bilan so‘zlashur.

Choy ichganda qo‘llari

Qaltirashib, titrashur.

(“ Har kim ekanin o‘rar”, Munavvarqori Abdurashidxonov, 4- sinf O‘qish kitobi, 31- bet).

So‘zlashur, titrashur- ko‘plikdagi fe’l, birgalik nisbat qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Safar bilan G‘ani ustalarga salom berishdi.

(“Yaxshi bo‘ldi”, N. Fozilov, 4-sinf o‘qish kitobi, 123-bet).

Salom berishdi – ko‘plikdagi qo‘shma fe’l, birgalik nisbati qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Ma’lumki, birgalik nisbati ish- harakatning yoki holatning bir necha shaxs tomonidan (ko‘pchilik bo‘lib) birgalikda amalga oshirilganligini yo amalga

oshirilmaganligini anglatadi. Fe'ning birgalik nisbati ko'plikni ifodalashga xizmat qiladi hamda fe'l asosiga *-sh, -ish* qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Biroq shunday fe'llar borki, bunday fe'llar tarkibiga birgalik nisbat qo'shimchalari o'rnashib qolgan. Masalan, *suhbatlashmoq, bahslashmoq, janjallashmoq* kabi. Shunga doir misollar bilan tanishamiz.

Kanizaklar talashib-tortishib terib olishdi.

(“Zahiriddin Muhammad Bobur”, X. Sultonov, 3-sinf o'qish kitobi, 134-bet).
Talashib-tortishib – ko'plikdagi fe'l, fe'ning vazifadosh shakli bo'lgan ravishdosh juft holda qo'llangan, fe'llar tarkibidagi birgalik nisbat qo'shimchasi ko'plikni ifodalagan, ko'plik leksik-morfologik usulda ifodalangan.

Birgalik nisbatining qo'shimchasi *-sh, -ish* ayrim holatlarda qo'shma fe'llarning har ikkalasiga ham qo'shilishi mumkin.

Ular qay biri yaxshi ekanligi haqida baxslashib qolishibdi.

(“Va'da berdi”, K.Yersarin, O'qish kitobi, 3- sinf, 61- bet).

Bahslashib qolishibdi- ko'plikdagi fe'l, birgalik nisbat qo'shimchasi ko'plikni ifodalagan, ko'plik morfologik usulda ifodalangan. Birgalik nisbatining qo'shimchasi *-sh, -ish* bu holatda qo'shma fe'llarning har ikkalasiga ham qo'shilgan.

Ravishdosh birgalik qo'shimchasi bilan ifodalangan yana bir misolni keltiramiz.

Noklar yerga to'kildi,

Bo'lishib bir jom.

Ammo zarar ko'rmadi

Sabzi va sholg'om.

(“So'nggi axborot”, Anvar Obidjon, 3- sinf O'qish kitobi, 46- bet).

Bo'lishib- ko'plikdagi fe'ning ravishdosh shakli bo'lib, birgalik nisbati qo'shimchasi ko'plikni anglatgan, ko'plik morfologik usulda ifodalangan.

Shunga o'xshash yana bir misolni ko'ramiz.

Non yeganda lablari

Burni bilan so‘zlashur.

Choy ichganda qo‘llari

Qaltirashib, titrashur.

(“ Har kim ekanin o‘rar”, Munavvarqori Abdurashidxonov, 4- sinf O‘qish kitobi, 31- bet).

Qaltirashib- ko‘plikdagi fe’lning ravishdosh shakli birgalik nisbati qo‘shimchasi bilan qo‘llanib ko‘plikni anglatgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Shunga o‘xshash yana bir misolni ko‘ramiz.

Shunday bir kichik xulosaga kelamizki, fe’llarda ko‘plik birgalik nisbati qo‘shimchalari yordamida ham ifodalanishi mumkin.

3-BOB. BOSHQA SO‘Z TURKUMLARIDA KO‘PLIK MA’NOLARINING IFODALANISHI

Boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblarida keltirilgan misollarda otlarda hamda fe’llarda ko‘plikning turli usullarda ifodalanishining guvohi bo‘ldik. Bunda ko‘plik –*lar* affiksi va asosan otlar oldidan son, ravish, olmosh turkumuga oid so‘zlarni keltirish yordamida amalga oshirildi. Yuqorida sanab o‘tilgan boshqa so‘z turkumlari narsalarning, shaxslarning ko‘p, birdan ortiq ekanligini anglatishga xizmat qildi. O‘qish kitobidagi misollarda otlarda va fe’llarda ko‘plikning turli vositalar yordamida ifodalanganligini uchratdik... Ushbu bob esa boshqa so‘z turkumlarida ham ko‘plikning ifodalanishiga doir masalalarga bag‘ishlangan.

3.1. Olmosh va ravishlarda ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi

Biz bilamizki, nutqimizda ot, sifat, son kabi so‘z turkumlarining ma’nosi umumlashib, olmoshga yaqin bo‘la oladi, ya’ni olmosh bilan almashina oladi. Olmosh ot so‘z turkumi o‘rnida qo‘llana olarkan, otlardagi son kategoriyasiga ham aloqadorlik kasb etadi. Olmosh morfologik hamda semantik usullarda ko‘plikni ifodalash xususiyatiga ega.

Kishilik olmoshining bir turi ko‘plik qo‘shimchasi yordamida hosil bo‘lgan.

Farhod ularning o‘yinini birpas tomosha qilib turdi – da, zerikib ketdi.

(“Chana”, O‘.Hoshimov, 3-sinf o‘qish kitobi, 83-bet).

Ularining – ko‘plikdagi olmosh, – *lar* affiksi ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Ko‘rsatish, so‘roq, gumon va o‘zlik kabi olmoshlarga –*lar* affiksi qo‘shilib morfologik usul bilan ko‘plikni bildiradi.

Shularga javob bering, so‘ngra dorga ossangiz roziman,- debdi.

(“Botir mergan va chaqimchi”, O‘qish kitobi, 3- sinf, 27- bet).

shularga - ko‘plikdagi olmosh, shu ko‘rsatish olmoshiga –*lar* affiksi qo‘shilib ko‘plikni anglatgan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Qosimjon bo'lsa, bularning hech biriga parvo qilmaydi, xafa, ko'ksida allaqanday dard... (“Xatosini tushungan bola”, X. To‘xtaboyev, 4-sinf o‘qish kitobi, 121-bet.)

Bularning – ko‘plikdagi olmosh, bu ko‘rsatish olmoshiga –lar affiksi qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Shunga o‘xshash yana bir misol.

Mana bularni ol, bir koringga yaratarsan,- deb tuyoqlarini yerga urgan ekan, oltin tangalar sochilibdi. (“Oltin tuyoqli kiyik”, ertak, 2- sinf O‘qish kitobi, 109- bet).

Mana bularni - ko‘plikdagi olmosh, *mana bu* kishilik olmoshiga –lar affiksi qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Olmoshlarning ayrim ma’no turlari semantik usulda ko‘plikni ifodalaydi. Kishilik olmoshlarini tahlil qilishdan boshlaymiz. *Biz, siz* kishilik olmoshlari semantik jihatdan ko‘plikni anglatadi.

G‘orni biz ham izlashdik. (“Qish ertagi”, Aziza Ahmedova, O‘qish kitobi, 3- sinf, 87- bet).

Biz- ko‘plikdagi olmosh, I-shaxs ko‘plikda kishilik olmoshi orqali ko‘plik bildiradi, semantik usulda ifodalangan. Yana bir misol:

Demak ona tabiat

Bizni der har vaqt.

(“Ona tabiat”, Toshpo‘lat Xolmatov, O‘qish kitobi, 3- sinf, 158- bet).

Bizni- ko‘plikdagi olmosh, I-shaxs ko‘plikda kishilik olmoshi orqali ko‘plik ifodalangan, leksik usulda ifodalangan.

O‘zlik olmoshiga –lar ko‘plik qo‘shimchasi va egalik qo‘shimchalari (*-imiz, -ingiz, -lari*) qo‘shilib ko‘plikni hosil qiladi.

O‘zlaringizdan so‘rab, halollik bilan oldim.

(“Chumoli va tipratikan” o‘k. 3- sinf 42 bet)

O‘zlaringizdan - ko‘plikdagi olmosh. Ushbu olmoshda ko‘plik xususiyatini anglatish uchun o‘z so‘ziga qo‘shilgan –ingiz egalik qo‘shimchasi yetarli, –lar

affiksi esa ko‘proq ta’kid ma’nosini ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Biz o‘zimiz yashab turgan mamlakatni ona- Vatan deb ataymiz.

(“Ona- Vatan”, Muhabbat Hamidova, 3- sinf, 12- bet).

Berilgan misolda o‘zimiz- ko‘plikdagi olmosh, egalik qo‘shimchasi olmoshga qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan. Ushbu gapda “o‘z” so‘zi (o‘zlik olmoshi) birlikni anglatadi, albatta, biroq o‘zlik olmoshiga qo‘shilgan *-imiz* egalik qo‘shimchasi uni *biz* so‘zi bilan tenglashtiradi. O‘zlik olmoshi kishilik olmoshidan keyin qo‘llangani uchun ta’kid ma’nosini ifodalaydi.

Ba’zi **so‘roq olmoshlariga** *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilib so‘ralgan shaxs yoki predmetning ko‘pligini anglatadi. -

Nimalar deyapsan, hoy o‘rmon shifokori?- dedi unga Quyon.

(“Qish ertagi”, Aziza Ahmedova, O‘qish kitobi.3- sinf, 85 bet).

Nimalar- ko‘plikdagi olmosh, *-lar* affiksi ko‘plikni ifodalangan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Shunga o‘xshash yana bir misol keltiramiz.

Tom ustida nelar bor, hey lola

O‘rdak bilan g‘ozlar bor, hey lola.

(“Qo‘shiq, Xalq og‘zaki ijodi, O‘qish kitobi, 3-sinf, 26- bet).

Nelar- ko‘plikdagi olmosh, *nima?* so‘roq olmoshining tarixiy shakli *-lar* affiksini olib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik morfologik usulda ifodalangan.

Shu bilan birga -lar affiksi **gumon olmoshiga** qo‘shilib ham ko‘plikni bildiradi. Masalan,

Faqat “Rahmat” dedi va ergashib Erkinning qulog‘iga allanarsalar deb pichirladi.

(“Yaxshilik”, F. Musajonov, 3-sinf o‘qish kitobi, 103-bet).

Allanarsalar – ko‘plikdagi olmosh, gumon olmoshi – *lar* affiksi bilan kelib morfologik usulda ko‘plikni ifodalagan. Garchi gumon olmoshi

miqdoriy noaniqlikni ifodalasa-da, *-lar* affiksi bunday olmoshlarga qo‘shilib shu noaniq buyumlarning ko‘pligini ifodalaydi.

Bizga ma’lumki, **jamlovchi olmoshlar** shaxs yoki predmetning jamini, ko‘pligini ifodalaydi. Jamlovchi olmoshlarga *barcha, hamma, bari, yalpi, yoppasi, butun* kabi so‘zlarni kiritish mumkin. Bunday olmoshlar semantik jihatdan ko‘plikni anglatish xususiyatiga ega. Masalan,

Bu gapi-ku yomonmas

Hamma mard bo‘lsa qani!

Bilimga oid gapi

O‘ylatib qo‘ydi mani.

(“Mardlik va aql yorugligi”, Miraziz A’zam, 4-sinf O‘qish kitobi, 14- bet).

Hamma- ko‘plikdagi olmosh, semantik usulda ifodalangan.

Yana bir misol:

O‘rtoqlarining hammasi yotoqda ekan.

(“Qo‘rqoq”, S. Anorboyev, 4-sinf o‘qish kitobi, 129-bet).

Hammasi- ko‘plikdagi olmosh, semantik usulda ifodalangan.

Shunga oid boshqa misollarni ham ko‘rib chiqamiz.

-Kelinglar hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik.

(“Noaniqlik oqibati”, (Hind ertagi), O‘qish kitobi, 3- sinf, 187- bet).

Hammamiz- ko‘plikdagi olmosh, ko‘plik ma’nosi egalik qo‘shimchasi yordamida ham ifodalangan, *hamma-* so‘zi semantik jihatdan ko‘plik ma’nosini ifodalaydi. Ko‘plik leksik- morfologik usulda ifodalangan.

Quyida keltiriladigan misolga diqqatingizni qarating:

Ozod Sharafiddinov butun umri davomida Milliy universitetda ishladi.

(“Matonatli ustoz”, O‘qish kitobi, 3- sinf, 16- bet).

butun- ko‘plikdagi olmosh, semantik usulda ifodalangan. Ushbu gapdagi *butun* olmoshi ma’lum vaqtni anglatuvchi *umr* so‘zi bilan kelgan va shu muddat ichidagi umumiy davrni shu bir so‘z (*butun* olmoshi) qamray olgan. Bu so‘z ma’nosi va ohangi jihatidan ko‘plikni ifodalaydi. Shuning uchun uni semantik usulda ko‘plikni ifodalaydi deymiz.

Saxiy topsa, barcha yer,

Baxil topsa, bosib yer.

(“Maqollar”, 3-sinf o‘qish kitobi, 139-bet).

Bu misolda *barcha* so‘zi ham jamlikni ifodalagani uchun, ko‘plikdagi olmoshhamda u semantik usulda ifodalangan deb qaraladi.

Demak, olmosh so‘z turkumi morfologik hamda semantik usullarda ko‘plikni ifodalash xususiyatiga ega.

3.2. Ravishlarda ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi

Ravishlar ham mustaqil so‘z turkumi hisoblanib harakat va holatning belgisini ifodalaydi. Shunga ko‘ra ravishlar miqdorni bildiruvchi va miqdorning ortiqligini ko‘rsatuvchi so‘zlarga ham ega. Ravish morfologik jihatdan o‘zgarmas bo‘lgani uchun ko‘pincha fe’llarga bog‘lanib keladi. Lekin bu kabi holatlarda miqdorni anglatuvchi ravishlar ham turli usullarda ko‘plikni bildiradi. Mavzumiz davomida bu fikrlarimizni isbotlashga harakat qilamiz.

Otga bog‘lanib keladigan ravishlar gapda sifatlovchi vazifasida keladi. Otga bog‘lanib predmetning belgisini bildirgan ravishlar ba’zan otlashib keladi. Bunday holda otlashgan ravishlar otga xos kategoriyalar bilan qo‘llanishi mumkin. Shulardan biri son kategoriyasidir. Masalan, *Ko‘plar podshoning buyrug‘ini pesh qilib, teraklarni kesishibdi.*

(“Kuychi terak”, ertak, 2- sinf O‘qish kitobi, 68- bet).

Bu misolda *ko‘p* ravishi otlashib –*lar* qo‘shimchasini olgan va ko‘plikni anglatgan. Ko‘plik leksik-morfologik usulda ifodalangan.

Ravishlar ham o‘zining maxsus belgilariga ega. Masalan, *-cha, -ona, -larcha* kabi so‘z yasovchi affikslari mavjud. Ushbu yasovchi affikslar yordamida ravishlarda narsa – buyum miqdorining ko‘pligini ifodalovchi so‘zlar yasalishi mumkin. *Boz ustiga, shuncha harakat qilsa-da, nuqtalar bir xil chiqmas- biri katta, biri kichik, Samadniki esa xuddi qolipdan chiqqan g‘ishtdek bir tekis edi...* (4- sinf “O‘qish kitobi”, “Xarita”, N.Norqobil, 12- bet).

Bu gapda *shuncha* soʻzi koʻplikdagi ravish boʻlib, *shu* korsatish olmoshiga –*cha* ravish yasovchi qoʻshimcha qoʻshilib ravish yasalgan va koʻplikni ifodalagan. Koʻplik simantik usulda ifodalangan. Shunga oʻxshash yana bir misol:

Vaqt hammaga shunchalar aziz.

(“Bebaho boylik”, H. Nazir, 3-sinf oʻqish kitobi, 54-bet).

Shunchalar – bu ravish ham yasovchi qoʻshimcha yordamida ravishga koʻchgan koʻrsatish olmoshi (*koʻp* degan maʼnoni anglatgan), yasalgan ravish koʻplikni ifodalagan. Unga – *lar* affiksi qoʻshilib kuchaytirish maʼnosini ifodalagan, koʻplik esa semantik usulda ifodalangan.

Ravishlarda ham juft hamda takroriy shakllar bor. Juft ravishlar (*ancha-muncha*) va takroriy ravishlar (*koʻp- koʻp*) odatda miqdorning yanada ortiqqligini, taʼkidlash, kuchaytirish maʼnolarini ifodalaydi.

Bir burda non topish maqsadida erta-yu kech mehnat qilganman.

(4- sinf, Oʻqish kitobi, Qodir boboning orzusi”, Toʻlqin Hayit, 6- bet).

Bu misolda *erta- yu kech-* koʻplikdagi ravish boʻlib, juft soʻz orqali anglashilgan, koʻplik leksik usulda ifodalangan.

Daraxtlarning ancha – munchasini bozorda pullabdi.

(“Soy suvi haqida ertak”, Z.Aʼlam, 3-sinf oʻqish kitobi, 162-bet).

Ancha – munchasini –koʻplikdagi ravish hisoblanadi, juft ravishlar koʻplikni ifodalagan, koʻplik leksik usulda ifodalangan.

Daraja-miqdor ravishlari boʻlgan, harakat va belgining ortiqqligini, moʻllicini koʻrsatuvchi ravishlar mavjud. Bunday ravishlarga *koʻp*, *moʻl*, *ancha* kabilar kiradi. Bu soʻzlar semantik xususiyatiga koʻra koʻplikni anglatadi. Shu sabab ularni koʻplik maʼnolarini ifodalovchi ravishlar deb aytamiz.

Qolsa kamib, yetmay agar sizdanam,

Oʻrtogʻingizda koʻp erur bizdanam.

(“Toʻgʻrisoʻz bola”, H. H. Niyoziy, 4- sinf Oʻqish kitobi, 130- bet).

Bu misolda *koʻp* miqdor ravishi semantik jihatdan koʻplikdagi ravish hamda koʻplik semantik usulda ifodalangan. Shunga oʻxshash misollarni koʻrib chiqishda davom etamiz.

Sabr bila ko‘p bog‘liq ish ochilur,

Ishda oshiqqan ko‘p toyilur.

(“Navoiy hikmatlari”, 3-sinf o‘qish kitobi, 133-bet).

Ko‘p – ko‘plikdagi ravish, ko‘plik semantik usulda ifodalangan.

Yana bir misol:

Bo‘lib o‘tdi qishloqda

Kecha zo‘r shamol.

Natijada ro‘y berdi

Anchayin kor-hol.

(“So‘nggi axborot”, A. Obidjon, 3-sinf o‘qish kitobi, 46-bet).

Anchayin – ko‘plikdagi ravish bo‘lib bu so‘z *ko‘p*, *mo‘l* kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ko‘plik semantik usulda ifodalangan.

Yana bir misolga diqqat qilamiz:

Qancha qilishmasin, tulkilarning hammasi g‘orga sig‘mabdi.

(“Qish ertagi”, A. Ahmedova, 3-sinf o‘qish kitobi, 87-bet).

Qancha – ko‘plikdagi ravish (ma’nosi *ko‘p*, *mo‘l*) hisoblanib, so‘roq olmoshining ko‘plik ma’nosi ravishga ko‘chgan, ko‘plik semantik usulda ifodalangan

Hammayoqda sovuq izg‘irin kezadi.

(“Qish”, “Yilnoma”dan, 3-sinf o‘qish kitobi, 77-bet).

Hammayoqda – ko‘plikdagi ravish bo‘lib, ko‘plik semantik usulda ifodalangan.

Demak, ravish so‘z turkumi ham leksik, leksik- morfologik hamda semantik usullarda ko‘plikni ifodalash xususiyatiga ega.

3.3.Ko‘makchilarda ko‘plik ma’nolarining ifodalanishi

Ma’lumki, ot yoki otlashgan so‘zlarning boshqa so‘zlarga, ko‘pincha fe’lga bo‘lgan munosabatini bildiruvchi yordamchi so‘z turkumlariga **ko‘makchilar** deyiladi. Darsliklarda keltirilgan misollarda ko‘makchilarga ham *-lar* affiksi

qo‘shilib ko‘plikni ifodalashi mumkinligiga guvoh bo‘lamiz. *Buni Boqiga o‘xshaganlar biladi.*

(“Qo‘shterak”, A. Irisov, 3-sinf o‘qish kitobi, 60-bet).

Ushbu gapda *Boqiga o‘xshaganlar* – so‘zida ko‘makchili qurilma otlashgan bo‘lib, – *lar* affiksi so‘zga qo‘shilib “Boqiga o‘xshagan odamlar”ning ko‘pligini ifodalagan, ko‘plik –*lar* affiksi yordamida ifodalanganligi uchun morfologik usulda ifodalangan hisoblanadi. Yuqoridagi gapda keltirgan fe‘l ko‘makchi (*o‘xshagan*) fe‘lning vazifadosh shakli bo‘lgan sifatdoshdan o‘sib chiqqan.

Ko‘makchilarning ko‘plikni ifodalashiga doir misollarni yana ko‘rib chiqamiz.

Qosimjon deganlari bu gaplarning hech biriga parvo qilmaydi, xafa, ko‘ksida allaqanday dard...(“Xatosini tushungan bola”, X. To‘xtaboyev, 4-sinf o‘qish kitobi, 121-bet.)

Qosimjon deganlari – so‘zida ham ko‘makchili qurilma otlashgan bo‘lib, – *lar* affiksi ko‘makchiga qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan, ko‘plik –*lar* affiksi yordamida morfologik usulda ifodalangan. Ushbu gapda keltirgan fe‘l ko‘makchi (*degan*) ham fe‘lning vazifadosh shakli sifatdoshdan o‘sib chiqqan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, yordamchi so‘z turkumlariga qo‘shilib keladigan –*lar* qo‘shimchasi ko‘plikni ifodalash xususiyatiga ega ekanligini ko‘rib o‘tdik. Biroq **ot ko‘makchilar** ham –*lar* affiksi bilan qo‘llanib ko‘plikni ifodalashi mumkin. Shunga doir bir misolni ko‘rib ciqamiz: *Ota-bolaning ortlaridan to‘rt-besh odam piqirlab kulib qoldi.* (“Sharq hikoyasi”, A. Oripov, 4-sinf o‘qish kitobi, 135-bet).

Ota-bola ortlaridan - so‘zida otdan so‘ng ko‘makchi ot kelgan , – *lar* affiksi ko‘makchi otga qo‘shilib ko‘plikni ifodalagan. Ko‘makchi ot o‘zidan oldin kelgan so‘z bilan birga bitta sintaktik vazifani bajaradi, ko‘plik juft so‘z hamda –*lar* affiksi yordamida ifodalanganligi uchun leksik-morfologik usulda ifodalangan hisoblanadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Ko'plik tushunchasi asosan ot so'z turkumiga xos bo'lib, otlarda ko'plik morfologik, leksik, leksik-morfologik hamda semantik usullar bilan hosil bo'ladi.
2. Otlarda ko'plikning morfologik usulda ifodalanishi *-lar* affiksi asosida amalga oshiriladi va ular narsalarning, shaxslarning ko'p, birdan ortiq ekanligini anglatishga xizmat qiladi. Shuningdek, otlarda ko'plik egalik qo'shimchalari yordamida ifodalanishi mumkin.
3. Otlarda ko'plik ma'nosi qo'shimchasiz holda otlar oldidan son, ravish, olmosh turkumidagi maxsus so'zlar yordamida leksik usulda ifodalanadi.
4. Otlarda ko'plikning leksik -morfologik usulda ifodalanishi asosan otlar oldidan son, ravish, olmosh kabi so'zlarni keltirish hamda *-lar* affiksi asosida amalga oshiriladi.
5. Otlarda ko'plik ma'nosining semantik usulida ot so'z turkumiga oid so'zlar birlik shaklda, yakka holda qo'llanib ham ko'plik ma'nosini anglatadi.
6. *-lar* qo'shimchasi grammatik ko'plik ifodalash bilan chegaralanmasdan, taxmin, hurmat, ma'noni kuchaytirishi, kinoya, kesatiq va boshqa shu kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin.
7. Fe'llarga qo'shilib keluvchi tuslovchi qo'shimchalar o'zbek tilida ko'plik ma'nosini morfologik usulda ifodalashga xizmat qiladi.
8. Fe'llar va uning kategoriyalari hamda fe'llarning vazifadosh shakllariga *-lar* affiksi qo'shilib o'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi, shu bilan birga *-lar* affiksi hurmat ma'nosini ifodalaydi.
9. Fe'llarda ko'plik birgalik nisbati qo'shimchalari yordamida ham ifodalanishi mumkin.
10. Olmosh so'z turkumida ko'plik ma'nolari morfologik hamda semantik usullarda ifodalanadi.
11. Ravish so'z turkumida ham leksik, leksik- morfologik hamda semantik usullarda ko'plik ifodalanadi.
12. Ko'makchilar ham *-lar* affiksini olib ko'plikni ifodalashi mumkin.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". T., "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008.
2. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti", Toshkent 2000- yil,
3. M.A.Hamrayev. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi". Toshkent, 2007.
- 4.S.Matchonov, A.S.Hojalolov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. "O'qish kitobi".4-sinf uchun darslik, Toshkent, "Yangiyo'l servisi" nashriyoti, 2009- yil.
- 5.Р.Икромов, А.Азизова, Д.Мухамедова. " Ўзбек тили ". Тошкент, "Ўқитувчи", 1983.
- 6.M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo'ldosheva, D.Muhamedova. "O'zbek tili praktikumi". Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2006- yil.
- 7.М.Миртожиев. "Ҳозирги ўзбек тили ". Тошкент, "Ўқитувчи", 1992- йил.
- 8.М.Намраев, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. "Ona tili". Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2007- yil.
9. Ф.Абдурахмонов, А.Сулаймонов, Х.Холиёров, И.Омонтурдиев. "Ҳозирги ўзбек адабий тили". Тошкент, "Ўқитувчи", 1979- йил.
- 10.А.Ғуломов, М.Аскарлова. "Ҳозирги ўзбек адабий тили". Тошкент, "Ўқитувчи",1987.
11. М.А.Намраев. "Ona tili". Toshkent, 2008- yil.
- 12.R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M. Abdurazoqova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 2009- yil.
13. М.Мирзаев, И.Расулов, С.Усмонов. "Ўзбек тили". "Ўқитувчи нашриёти, Т., 1978.
14. S.Ashirboyev, I.Azimov. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi". Toshkent, 2002- yil.
15. R.Rasulov, A.Mirazizov. "O'zbek tili". Toshkent, "Gap va texnologiya", 2006- yil.
16. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent " Noshir" nashriyoti, 2009- yil.
- 17.Q.Abdullaeva, M.Yusupov, S.Rahmonbekova. "O'qish kitobi" 2-sinf uchun darslik Toshkent "O'qituvchi" 2010- yil.
18. M.Umarova, Sh.Hakimova. "O'qish kitobi" 3-sinf uchun darslik "Cho'lpon" nashriyoti. Toshkent , 2010- yil.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

<i>O'zbekcha</i>	<i>Inglizcha</i>
Ko`plik	Plural
Birlik	Singular
Ot so'z turkumi	The noun
Fe'l so'z turkumi	The verb
Olmosh so'z turkumi	The pronoun
Ravish so'z turkumi	The adverb
Sifat so'z turkumi	The adjective
Son so'z turkumi	The numeral
Fe'ldan yasalgan otlar	Verbal Nouns
Kategoriya	Category
Otlarda kelishik	Case of Nouns
Donalab sanaladigan otlar	Countable Nouns
Donalab sanalmaydigan otlar	Noncountable Nouns
Atoqli otlar	Common nouns
Turdosh otlar	Proper nouns
Son kategoriyasi	Number category
Mayl kategoriyasi	The category of mood
Fe'ling vazifadosh shakllari	The forms of verb functions
Harakat nomi	Gerund
Sifatdosh	Participle
Ko'makchi	Postposition (helper)
Qo'shimcha	Addition
Morfologik usul	Morphological method
Leksik usul	Lexical method
Leksik- morfologik usul	Lexical - morphological method
Semantik usul	Semantic method
So'z	Word
Darslik	Textbook
Ifodalamoq	Express
Atalmoq	To call a name